

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

*Qo'lyozma huquqida*

**Tillayeva Rayhona To'xhtasinovna**

**Lisoniy birliklarni modellashtirish**

**5A120102 – Lingvistika ( o'zbek tili)**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

**H.Usmonova,**  
filologiya fanlari doktori

**Namangan – 2016**

## MUNDARIJA:

Kirish.....	3
<b>I BOB. MODEL VA MODELLASHTIRISH MUAMMOLARI</b>	
1.1. Modellashtirish bosqichlari va muammolari.....	12
1.2. Lingvistik model.....	15
<b>II BOB. TILNING SATHLI TUZILISHI VA SATH BIRLIKLARINI MODELLASHTIRISH MUAMMOLARI</b>	
2.1. Tilning sathli tuzilishi va sath birliklari o'rtasidagi munosabatlar.....	19
2.2. Morfologik birliklarni modashtirish .....	26
<b>III BOB. SINTAKTIK SATH BIRLIKLARINI MODELLASHTIRIRSH MUAMMOLARI</b>	
3.1. Sintaktik birliklarni modellashtirish .....	32
3.2. Sintaktik model va transformatsiya.....	45
Umumiy xulosalar.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	65

## **Kirish**

Istiqlol yillarida yurtboshimiz rahnamoligida benihoya xolis va odil til siyosati shakllandi, bu siyosatni hayotga joriy qilish borasida ishlab chiqilgan aniq chora-tadbirlar muntazam amalga oshirilmoqda. Qisqa vaqt ichida o'zbek alifbosi va imlosi isloh qilindi, ona tilimizning qadimiy milliy qadriyatlardan biri ekanligi e'tirof etilib, o'zbek tilini ilmiy tadqiq qilish va o'qitish ishlari jahon talablariga javob beradigan darajaga keltirildi. Endilikda mana shu tarixiy o'zgarishlarning, bu boradagi yutuq va tajribalarning umumlashtirilishi ramzi sifatida bevosita Prezidentimiz boshchiligida joriy yilning 13 may kuni respublikamizda Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etildi. Mazkur oliy dargohning tashkil etilganligi yurtimizda millatning ruhi bo'lgan ona tilimiz hamda xalqning milliyligi, o'zligini namoyon qiluvchi vosita hisoblanuvchi adabiyotga alohida e'tibor, ularning yanada yuksak taraqqiyoti uchun zamin hozirlanayotgani ramzidir. Bu tarixiy voqea mamlakatimizdagi barcha tilshunos va adabiyotshunoslarni, shuningdek, butun xalqimizni cheksiz quvontirdi. O'zbek tili va adabiyoti universitetining Vatanimiz mustaqilligi 25 yilligi arafasida tashkil etilganligi istiqlol ayyomiga yana bir tuhfa bo'ldi. Tilshunos va adabiyotshunoslar oldiga yangi vazifalarni qo'ydi.

Mustaqillik – bu, yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, hech kimga qaram bo'lmasdan, o'z milliy manfaatlarimizni, uzoq va davomli maqsadlarimizni ko'zlab, iqtisodiyotimizning barqaror sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash, aholimizning farovonligini, xalqaro maydonda Vatanimizning obro'-e'tiborini munosib darajaga ko'tarishdir.

Shu bilan birga, ertangi kunimizni yanada yuksaltirishga mustahkam zamin yaratish, biz boshlagan buyuk ishlarni davom ettirishga qurbi-qudrati yetadigan, hech kimdan kam bo'lmasdan hayotga kirib kelayotgan yetuk va barkamol, mustaqil fikrlaydigan yangi avlodni kamol toptirish demakdir.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. О'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. - "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 3-sentabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisida so'zlagan **«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»**<sup>1</sup> to'g'risidagi ma'ruzasi yurtimiz hayotida tom ma'noda tarixiy ahamiyatga molik voqea bo'ldi.

Prezidentimiz mazkur chiqishida mustaqillik yillarida bosib o'tgan yo'limiz va to'plagan tajribamizni xolisona baholab, qo'lga kiritgan yuksak marralarimizni har taraflama tahlil etgan holda, mamlakatimizni tadrijiy va bosqichma-bosqich rivojlantirish bo'yicha tanlagan yo'limizdan og'ishmay, qat'iyat bilan borishimiz zarurligiga alohida e'tibor qaratdi.

Ertangi istiqbolni ko'zlab, mukammal ishlab chiqilgan mazkur Konsepsiya jamiyatimizni isloh etish va modernizasiya qilish borasida qariyb 20 yil oldin boshlangan jarayonni davom ettirishimiz uchun mustahkam asosdir.

Asarda ta'kidlanganidek, jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz lozim. Zero, har birimiz uchun Vatan, el-yurt manfaatlari har narsadan ustun ekan, bu yo'lda bir yoqadan bosh chiharib, ahillik va hamjihatlikda faol harakat qilsak, ko'zlagan ezgu maqsadalarimizga, yanada yuksak marralarga albatta erishamiz.

Biz tanlagan yo'lning o'zimizga xos va o'zimizga mosligi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish masalasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilanganida ko'rinadi. Mustaqillikning ibtidosidayoq ma'naviy yuksalishning mezonlari, tamoyillari ishlab chiqilgan bo'lsa, Yurtboshimizning **«Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch»** asarida taraqqiyotning o'zbek modeli ma'naviy yuksalishga asoslanishi nazariy jihatdan dalillab berildi. Yurtboshimiz talqiniga ko'ra, **«...ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini**

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.

**butun qiladigan, vijdonini uyg`otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir».<sup>1</sup>**

Biz ma'naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga intilayotgan ekanmiz, hech qachon o`z qobig`imizda o`ralashib qolmasligimiz kerakligi, qisqacha aytganda, boshqa sohalar kabi adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Bu borada G`arb bilan birga Sharq mamlakatlari, jumladan, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya bilan Misr, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt kabi arab mamlakatlari bilan aloqalar kuchaytirilishi tavsiya etiladi.

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g`urur va iftixori, milliy borlig`ini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so`nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o`rganishga bo`lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi.<sup>2</sup>

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o`rin egallab borayotgan O`zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo`lga kiritgan ulkan marralariga, el-yurtimizning ma'naviy ildizlari, urf-odat va an'analariga, bir so`z bilan aytganda, o`zbek xarakteri, o`zbek tabiatiga butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bormoqda. Tabiiyki, uzoq-yaqindagi xorijiy do`stu birodarlarimiz, jahon jamoatchiligi eng avvalo bizning zamonaviy adabiyotimiz va san'atimiz orqali qiziqtiradigan ana shunday savollarga javob topishni istaydi. Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo`lmoqda. Lekin, afsuski, bu masalada biz hali-beri ko`zga ko`rinadigan amaliy natijalarga erisha olganimiz yo`q. Ilgari o`zbek adabiyotining namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, ya'ni rus tili orqali amalga oshirilardi. Bu borada qilingan katta

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.

<sup>2</sup> Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.48.

ishlarni munosib baholagan holda, endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan G`arb va Sharq tillariga tarjima qilishga haratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san'atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari bizda mavjud. Uzoq yillar davomida o`zbek adabiyotini to`g`ridan-to`g`ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o`quv yurtlarida ta'lim olayotgan iste'dodli o`g`il-qizlarimizni mana shu mashaqqatli, ayni paytda olijanob ishga jalb etish, bu masalani yechish bilan bevosita bog`lik bo`lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo`lur edi.<sup>1</sup>

Prezident Islom Karimov o`zining **“O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”** asarida til haqida shunday deydi:

“Til haqidagi ba’zi mulohazalar bilan o`rtoqlashmoqchiman. Birinchi navbatda shuni aytmqochimanki, o`zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hech kimda hech qanday shubha tug`dirmasa kerak. Bu allaqachon yuz berishi lozim bo`lgan hodisa ediki, aholimiz ko`pchiligining qonuniy talabi ham shunday edi.

**Binobarin, o`z ona tilini bilmagan odam o`zining shajarasini, o`zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo`q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb juda to`g`ri aytishadi.”<sup>2</sup>**

Biz, mustaqillik davrida ta'lim olayotgan yoshlar Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlaridagi qimmatli fikrlaridan ruhlangan va xulosalar chiqargan holda o`z ona tilimiz va adabiyotimizni puxta o`rganishimiz, xorijiy tillarni yaxshi o`rganib u orqali chet tilidagi adabiyotlarni o`qib, o`z ona tilimizga to`g`ridan to`g`ri tarjima qilishimiz zarur bo`ladi.

Mustaqillik yillarida ma'naviyatning ajralmas va uzviy bir qirrasini bo`lgan o`zbek tili taraqqiyoti hamda ravnaqiga ham alohida e'tibor berildi. Charog`on kunduz-la qovushgan o`zbek tili va tilshunosligining qaddi ham, qadri ham tamoman tiklandi. Bu muborak holat mumkinotining, nafaqat mumkinoti, balki

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент, 2009. – Б. 139-140

<sup>2</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 69.

muntazam ta'minotining tashabbuskori va posboni ham Yurtboshimizdir.<sup>1</sup> U kishining ushbu soʻzlarida tilimizga posbonlik va gʻamxoʻrlik yana bir bora oʻzining yorqin ifodasini topgan: «Biz ajdodlardan avlodlarga oʻtib kelayotgan bebaho boylarning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa fundamental fanlar, zamonaviy kommunikasiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi oʻta muhim sohalarda ona tilimizning qoʻllanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lugʻatlar nashr etish, zarur atama va iboralar tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir soʻz bilan aytganda, oʻzbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy oʻzlikni, Vatan tuygʻusini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz».<sup>2</sup>

Hisobot yilida **taʼlim sohasini** rivojlantirish va isloh etish masalasi doimiy ravishda ehtiborimiz markazida boʻldi.

Taʼlim-tarbiya sohasining yaxlit uzliksiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash, jumladan, umumiy oʻrta taʼlimdan boshlab oʻrta maxsus, kasb-hunar hamda oliy taʼlimgacha boʻlgan barcha bosqichlarda yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega boʻlgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirildi.

Taʼlim sohasidagi ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz Frantsiyadagi dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan “Inssad” xalqaro biznes maktabining 2012 yilgi “Innovatsiyalarning global indeksi” maʼruzasida bayon etilgan maʼlumotlarni keltirish oʻrinli, deb oʻylayman. Maʼruza Jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlangan.

Ushbu maʼruzada dunyoning 141 mamlakatidagi innovatsion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Tahlilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish darajasi boʻlib, mazkur koʻrsatgich boʻyicha bizning mamlakatimiz 35-oʻrinni egallagan. **Taʼlim tizimini rivojlantirish darajasi boʻyicha esa Oʻzbekiston – shunga etibor beringlar – dunyoning 141 mamlakati orasida ikkinchi oʻrinni band etgan.**

<sup>1</sup> Маҳмудов Н., Бегматов Э. Тилимизнинг кеча ва кундузи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – №5. – Б.11.

<sup>2</sup> Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 87.

O'ylaymanki, bu o'rinda ortiqcha izohga hojat yo'q.<sup>1</sup>

Mahlumki, ilgari zamonda “Biz ko'rmaganni bolalarimiz ko'rsin”, degan niyat va qarash, kerak bo'lsa, armon bilan ota-bobolarimiz dunyodan yashab o'tdi. Bugun esa zamonning talabi boshqacha. Yahni, farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli dono va albatta baxtli bo'lishi shart, degan shior hayotimizdan chuqur joy olmoqda. Shu bilan birga, bugungi yashayotgan odamlar, xalqimiz xayotdan rozi bo'lib, hech kimdan kam bo'lmasdan, erkin va farovon yashashi kerak.

Bir naql bor – katta, ulkan ishlarni uzoqdan ko'rish mumkin. Shu mahnodan, bunday olijanob ishlarning ahamiyati uzoqdan qaraganda, baho berganda ayniqsa yaqqol ayon bo'ladi.<sup>2</sup> Bunday haqqoniy dalillar va fikrlar barcha qatori tilshunoslarni ham, biz filolog talabalarni ham ona tilini sevish va qadrlashga chorlaydi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Tilning sistema ekanligi bugungi kunda deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etilsa ham, lekin til sistemasi va tuzilishiga yondashuv lingvistlar o'rtasida bir xil emas. Sistemaga tilshunoslarning turli xil qarashlarini jamlagan holda Y.S.Kubryakova va G.P.Melnikovlar ularni quyidagi besh guruhga bo'ladilar:

- 1) inventar-taksonomik;
- 2) vazifaviy;
- 3) struktur;
- 4) stratifikatsion;
- 5) tipologik.

Boduen de Kurtene va F. de Sossyurlar asos solgan sistemaviy tilshunoslik deb nomlanuvchi hozirgi tilshunoslikning bosh vazifasi bevosita

---

<sup>1</sup> Bo'sh maqsadimiz – keng kўlamli islohotlar va modernizatsiya йўлини қатъият билан давом эттириш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи 2013. 19.01. - Б. 2.

<sup>2</sup> Президент Ислам Каримовнинг халқ депутатлари Андижон вилояти кенгашининг навбатдан ташқари сессиясидаги нутқи // Маърифат, 2013. 27.04. – Б. 2-4.



kuzatishda berilgan hodisalar zamirida yashiringan mohiyatlarni, abstrakt birliklarni aniqlashdan iboratdir.

Har qanday tabiiy obyektни, tabiatning har qanday murakkab bo'lagini sistemaviy-struktur asosda uch nuqtayi nazardan o'rganish mumkin:

- 1) elementlarning ma'lum yig'indisi sifatida;
- 2) bu elementlar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum yig'indisi sifatida;
- 3) elementlar va munosabatlarning ma'lum substantsiya tarkibida muvofiqlashgan yig'indisi sifatida.

Obyektga yuqoridagi kabi uch xil yondashuvga muvofiq, bu obyektни sistemaviy-struktur o'rganishning ham uch bosqichini ajratish mumkin:

- 1)uzviy;
- 2) struktur;
- 3) sistemaviy.

Mazkur bosqichlar insonning olamni bilish bosqichi bilan uzviy daxldordir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinadiki, tilshunoslik obyektini bevosita kuzatuvga berilmagan fanlar sirasiga kiradi. Shuning uchun uning obyektini umumlashtirilgan ideal qurilmalar asosida o'rganish til mohiyatini, uning qonuniyatlarini obyektiv baholashga imkon beradi.

Har qanday lingvistik tadqiqot kuchli darajadagi abstraktsiyaga asoslangandagina chinakam haqiqatga erishadi.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** Lisoniy birliklarni modellashtirish masalasi jahon tilshunosligi, jumladan, rus tilshunosligida bir qator tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan. Modellashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Modellashtirish masalasiga system tilshunoslik namoyandalaridan bir qatir tilshunoslar e'tibor qaratganlar. Jumladan, rus tilshunoslaridan Y. F. Kirov<sup>1</sup>, L.N. Murzin<sup>2</sup>, I.I. Revzin<sup>3</sup>, o'zbek tilshunosligida morfemik, morfologik,

---

<sup>1</sup> Киров Е.Ф. Теоретические проблемы моделирования языка. -Изд.Казанского университета,1989. -С.8

<sup>2</sup> Мурзин Л.Н. Лингвистическое моделирование и деривация речевй деятельности. – Деривация в речевой деятельности. Пермь, 1988. С.19-21

<sup>3</sup> Ревзин И.И. Модели языка.М., 1962. С.9.

sintaktik sathda modellashtirish masalalari T. Mirzaqulov<sup>1</sup> kabilarning ilmiy izlanishlarida modellashtirish masalasi ham yoritib o'tilgan.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Lingvistik model va lisoniy birliklarni modellashtirish muammolarini yoritib berish ishning bosh maqsadi hisoblanadi. Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- modellashtirish bosqichlari va muammolarini o'rganish;
- lisoniy birliklarni modellashtirish muammolari haqidagi ilmiy qarashlarni tahlil etish;
- lingvistik model haqida tushunchaga ega bo'lish;
- tilning sathli tuzilishi va sath birliklari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash;
- morfologik birliklarni modellashtirish va u bilan bog'liq muammolarni o'rganish;
  - sintaktik birliklarni modellashtirish haqidagi fikrlar bilan tanishish;
  - sintaktik model va transformatsiya munosabatini yoritish.

**Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy-nazariy va metodik asosi.** Mavzuni yoritishda o'zbek tilshunoslari A. Hojiyev, R. Sayfullayeva, Sh. Rahmatullayev, A.Nurmonov, H. Ne'matov, Sh. Iskandarova va boshqalarning tadqiqotlaridan, darsliklaridan foydalandik.

Ishda modellashtirishni o'rganishda, asosan, qiyoslash, sistem-struktur tilshunoslikning abstraksiyalash, tavsiflash, komponent tahlil, morfologik tahlil, uslubiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Magistrlik dissertatsiyasida jahon va o'zbek tilshunosligida modellashtirish borasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar umumlashtirildi. Til birliklarini modellashtirish muammolari tahlil qilindi.

**Magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy ahamiyati.** Mazkur tadqiqot materiallaridan oliy o'quv yurtlarida «Tilshunoslik nazariyasi», «Hozirgi o'zbek adabiy tili», «Mazmuniy sintaksis», «Nazariy tilshunoslik» kabi fanlarda

---

<sup>1</sup> Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспекти ва уларнинг муносабатлари. -Хўжанд.1992; Шу муаллиф. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари. Филол.фан.докт....диссерт. автореф. -Тошкент, 1994.

system-struktur tilshunoslik metodlarini o`rganish va o`rgatishda foydalanish mumkin.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Ish so`zboshi, "Model va modellashtirish", "Tilning ko`p sathlilik va turli sath birliklarini modellashtirish muammolari" nomli uch asosiy bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 75 bet.

## I BOB. MODEL VA MODELLASHTIRISH MUAMMOLARI

### 1.1. Modellashtirish bosqichlari va muammolari

Tilni modellashtirish texnik modellashtirishdan farqli ravishda, o'ziga xos xususiyatlarga ega. L.N.Murzinning fikricha, obyekt bevosita kuzatuvga berilmagan har qanday fan obyektini modellashtirishga majbur bo'ladi. Modellashtirish umumilmiy metod bo'lib: 1) deduktivlik, 2) tafakkur eksperimentidan foydalanish va 3) modelni ideal obyekt sifatida talqin qilish kabilar bilan xarakterlanadi. Lingvistik modellashtirish berilgan semiotik elementlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi sifatidagi til bilan yoki verbal kommunikatsiya jarayoni sifatidagi til bilan ish ko'radi<sup>1</sup>. Demak, modellashtirish struktur tilshunoslik, psixolingvistika, dinamik va kommunikativ lingvistikalarning obyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Modellashtirish struktur tilshunoslik, psixolingvistika, dinamik va kommunikativ lingvistikalarning obyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Modellashtirish struktur tilshunoslik, psixolingvistika, dinamik va kommunikativ lingvistikalarning obyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Modellashtirish struktur tilshunoslik, psixolingvistika, dinamik va kommunikativ lingvistikalarning obyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Modellashtirish struktur tilshunoslik, psixolingvistika, dinamik va kommunikativ lingvistikalarning obyekt sifatida namoyon bo'ladi.


Til modeli haqida fikr yuritar ekan, I.I.Revzin shunday yozadi: "Model quyidagicha quriladi. Muayyan fan tomonidan to'plangan xilma-xil tushunchalar yig'indisidan birlamchi deb qabul qilinuvchi ayrimlari tanlab olinadi. Birlamchilar o'rtasidagi munosabatlar aniqlanadi va ular pastulat sifatida qabul qilinadi. Qolgan barcha da'volar qat'iy deduktiv ravishda terminlarda namoyon bo'ladi. Ular birlamchi tushunchalar orqali aniqlanadi. Shu ma'noda model sistema sifatidagi tilning qismi emas, balki qandaydir konstrukt, gipotetik ilmiy qurilma sifatida qabul qilinadi"<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Мурзин Л.Н. Лингвистическое моделирование и деривация речевых деятельности. – Деривация в речевой деятельности. Пермь, 1988. С.19-21.

<sup>2</sup> Ревзин И.И. Модели языка.М., 1962. С.9.

Tushuniladiki, modellashtirishda to'rt bosqichni ajratish mumkin:



Bu holatda model obyektlarni intellektual, fikriy abstraktlashtirish natijasidir.

E.F.Kirov modellashtirish jarayonida tadqiqotchi obyektlar uchligi bilan ish ko'rishini ta'kidlaydi: tilning funktsiyalanish natijasi; jamiyat ongida tezaurus sifatida mavjud bo'lgan tilning o'zi va grammatik vositalar tizimi; tilning gnoseologik modeli. SHu bilan birgalikda, modellashtirishga aloqasi bo'lmagan to'rtinchi bosqichni – o'rganilayotgan obyektlarning umumiy mohiyati sifatidagi konstruktlar bosqichi mavjudligi haqida fikr yuritib, ularni o'rganish falsafaning, aniqrog'i, gnoseologiyaning vazifasi ekanligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

Obyektni modellashtirish bilishning amaliy bosqichida erishilgan natijalar asosida nazariy bosqichda amalga oshirilishini hisobga oladigan bo'lsak, modellashtirishning gnoseologiya bilan uzviy bog'liq ekanligi va u modellashtirishning zaruriy xalqasi ekanligi namoyon bo'ladi. Ko'rinadiki, konstruktlar umumlashtirilgan ideal birliklar bo'lib, bir turdagi moddiy va ideal birliklar tipidir. Bu tiplar obyektlarning nomuhim belgilarini chetlashtirish va muhim belgilari asosida umumlashtirish – abstraktlashtirish natijasida hosil qilinadi.

---

<sup>1</sup> Киров Е.Ф. Теоритические проблемы моделирования языка. Казань: Изд-во казанского университета, 1989. С.10.

Ya.Lincbaxning abstraksiyalash haqidagi fikrlari asosida Ye.F.Kirov mavhumlashtirishning to'rt bosqichini ajratadi: 1) tabiiy til; 2) obrazli shakldagi fikriy mazmun; 3) mantiqiy predmetlik qurilmalar oblasti; 4) matematik model va qonuniyatlar oblasti<sup>1</sup>. Bunda to'rtinchi bosqich abstraksiyalashning eng yuqori, kuchli darajasini hosil qiladi.

---

<sup>1</sup> Киров Е.Ф. Ўша асар, 14-б.

## **1. 2. Lisoniy birliklarni modellashtirish mummolari**

Olam bir butunlik, sistemadir. Ikki va undan ortiq elementlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik sistema hisoblanadi.

Butunlikning nisbiyligi shundaki, u o'z tarkibidagi elementlarga nisbatan yaxlitlik sanaladi. Ayni paytda, bu butunlikning o'zi shunday butunliklar bilan sintagmatik munosabatga kirishib, ular bilan birgalikda o'zidan kattaroq butunlikni hosil qiladi va bu butunlik tarkibida uning elementlari sifatida funktsiyalashadi.

Butunlikning nisbiyligi uning ierarxiyali tuzilishini belgilaydi va sistemalar sistemasi ekanligini ko'rsatadi.

Sistema tushunchasi struktura tushunchasini taqozo etadi. Bu ikki tushuncha o'zaro dialektik munosabatda. Shuning uchun sistemaviylik ko'pincha sistema-strukturlik bilan teng qo'yiladi. Sistemaviy tadqiqotlarning tekshirish metodi strukturlik, ya'ni struktur metod sanaladi.

Sistemaviy-struktur tadqiqot tarafdorlari obyektga sistemaviy-struktur yondashuvlarning afzalliklarini ta'kidlar ekan, quyidagilarni ko'rsatadilar: 1) sistema yoki struktura tushunchasi ostida borliqning umumiy o'xshash va tuzilish tomonlarini aniqlash imkoniyati yaratiladi; 2) ularning ichki tuzilishidagi yagona tamoyil mavjudligini aniqlash mumkin bo'ladi; 3) turli obyektlarning yashirin xossalari va xususiyatlarini hamda ularning kelib chiqish sabablarini ochish imkoniyati vujudga keladi.

Inson dastlab o'zini qurshab turgan olamni ayrim uzvlarga ajratadi. Olamning ajratilgan bu bo'lagi go'yo avtonom, sifatli ajratilgan holda tasavvur qilinadi.

Bundan so'ng ushbu obyektning narsa substrati sifatida aniqlashga harakat qilamiz. Buning uchun uning o'ziga xos xususiyatlari yig'indisi aniqlanadi. Ma'lum muddatgacha bu aniqlangan xususiyatlar obyektning o'ziga nisbatan beriladi va u alohida substant hosila sifatida tasavvur qilinadi. Keyinchalik boshqa xususiyatlarning ham aniqlanishi bu xususiyatlarning saralanishiga, boshqa obyektlardagi shunday xususiyatlar bilan assotsiatsiyalashga imkoniyat yaratadi.

Natijada bilishning keyingi bosqichida obyekt qismlarini ajratish imkoniyati tug'iladi. Ularga muayyan elementlar munosabatidan tashkil topgan murakkab butunlik, mexanizm sifatida qarash mumkin bo'ladi.

Narsaga bunday elementlar integratsiyasi sifatida qarash uzviy bosqichning vazifasi sanaladi.

Bilishning navbatdagi bosqichida butunlik tarkibidagi elementlarning munosabat turlari aniqlanadi. Butunlik tarkibidagi elementlar munosabat tugunlarini struktura deb hisoblasak, munosabat tugunlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usulini ham struktur bosqich deb baholash mumkin bo'ladi.

Tadqiqotchi narsaga struktur yoki substant yondashuv asosida hosil qilingan bilimlariga tayangan holda, bilishning navbatdagi bosqichiga o'tmog'i lozim bo'ladi. Bu bosqichda struktur yondashuv asosida aniqlangan butunlik elementlari o'rtasidagi munosabatlarning qaysilari shu butunlikning mavjud bo'lishi uchun muhim, markaziy, asosiy; qaysilari nomuhim, chegara, ikkinchi darajali ekanligi aniqlanadi. Ya'ni o'rganilayotgan obyekt ikkinchi darajali, qo'shimcha, chegara belgilardan soqit qilinadi: bu belgilar obyektidan chetlashtiriladi. Natijada obyektga butunlik tarkibidagi elementlarning eng muhim munosabatlari sistemasi, sistema hosil qiluvchi elementlar munosabati sifatida qaraladi.

Bilishning bu uch bosqichi falsafadagi xususiylik, alohidalik, umumiylik dialektikasini o'zida namoyon qiladi.

Muayyan sinfga mansub bo'lgan obyektning bir guruhi uchun istisnosiz umumiy bo'lgan belgilar **alohidalik** tushunchasi bilan ifodalanadi.

Ma'lum bir sinfga mansub bo'lgan obyektning barchasi uchun istisnosiz umumiy bo'lgan belgilar **umumiylik kategoriyasini** tashkil etadi.<sup>1</sup>

Xususiyliklarni bir-biriga taqqoslab, zidlab, ular o'rtasidagi o'xshash belgilar asosida fikriy predmetni, abstrakt narsani hosil qilishimiz umumiylikni keltirib chiqaradi.

---

<sup>1</sup> Философский словарь. -М.: Полит.литература, 1991. -С.134.



Xususiyluk va umumiylik bilishning ikki chegara qutbi, alohidalik esa ular o'rtasidagi oraliq bo'g'inni hosil qiladi. Alohidalik ikki qutbiy zidlik o'rtasida joylashib, har ikki kategoriyaning muayyan belgilarini o'zida mujassam qiladi.

Alohidalik nisbiy tushuncha bo'lib, u xususiylikka binar tamoyil asosida zidlanganda, unga nisbatan umumiylik, umumiylikka zidlanganda esa, unga nisbatan xususiylukni bildirishi mumkin.

Umumiylik va xususiyluk kategoriyasi bilan mohiyat-hodisa kategoriyasi o'zaro uzviy bog'liqdir.

Obyektning bamisoli asosini tashkil etadigan va uning mazmunida barqaror bosh narsa sifatida yuz beradigan alohida reallik mohiyat sanaladi. Mohiyat xususiyluklarning asosiy momentlari, tomonlari, ichki aloqasining markaziy nuqtasidir.

Mohiyatning tashqi ayon bo'lishi, uning yuz berish shakli hodisalar orqali ro'y beradi. Hodisa inson sezgi a'zolaridan, jumladan, ko'zdan yashirin bo'lgan mohiyatdan farq qilgan holda, narsalarning sirtida mavjud bo'ladi.

Mohiyat ichki holat sifatida narsalarning tashqi, o'zgaruvchan tomoniga qarama-qarshi qo'yiladi.

Mohiyat bir qancha tashqi ko'rinishlarda ifodalanadi. Mohiyatning tashqi ifodalanish shakllari hodisalardir. Demak, mohiyat va hodisa o'zaro dialektik bog'langan.

Lekin hodisalardagi mohiyat doimo aniq ko'rinavermaydi. Ko'pincha u pardalanishi mumkin.

Agar biz borliq haqidagi sezgi a'zolarimiz bergan bevosita bilimga tayanib xulosa chiqaradigan bo'lsak, biz chinakam ilmiy haqiqatga erishmagan, aldangan bo'lamiz. SHuning uchun bizning ajdodlarimiz Kant va Gegeldan bir necha asrlar oldin ham chin bilim bilan ko'rinish (refleksiya)ni farqlagan holda, borliqni ilmiy bilishda uning mohiyatiga tayanishni tavsiya etgan edilar. Ana shu mohiyat va ko'rinish (refleksiya) tushunchalari Farobiyda **javhar** va **oraz** atamalari orqali ifodalanadi.

Uning fikricha, beaded ziddiyatlar bir-birini almashtirib turadi. Bunday tanovoblarda (o'zgarishlarda) bitta o'zgarmaydigan doimiy narsa bor. U ushbu tanovoblarni saqlab turadi va ularga singib ketadi. Doimiy, o'zgarmas narsa javhar, o'zgarib turuvchi narsalar oraz deyiladi.<sup>1</sup>

Demak, Forobiyning fikricha, sezgi a'zolarimiz ta'siriga berilayotgan har bir borliq uzvi javhar va orazlar munosabati birligidan tashkil topgan. CHin bilishga erishmoq uchun orazlarni tenglashtirish orqali javharni aniqlash lozimdir.

Forobiyning **javhar** va **oraz** zidlanishi tasavvuf falsafasiga ham ta'sir etdi. Tasavvuf falsafasida bu zidlanish zot va tazohir yoki zot va tajalli atamalari bilan nomlanadi.

G'arb va sharq falsafasida mavjud bo'lgan ana shu umumiylik-xususiylik dialektikasi tilshunoslikka ham ta'sir etdi va bu dialektik munosabat sistemaviy-struktur tilshunoslik vakillari tomonidan til va nutqni bir-biriga zidlashlarida, invariant va variant tushunchalarining olib kirilishida namoyon bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. -Б.75.

### 1. 3. Lingvistik model

Tilga sistemaviy yondashuv til birliklarini munosabatlar yig'indisi sifatida izohlashni, ya'ni ikki va undan ortiq elementlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida qarashni taqozo etadi.

Til birliklarini ma'lum elementlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida izohlash esa ularni modellashtirish imkoniyatini beradi.

Lingvistik model inson ongida imkoniyat tarzida mavjud bo'lgan konstruktiv sxema ekanligi bilan va u bevosita nutqiy jarayonda konkret leksik birliklar yordamida to'ldirilishi bilan xarakterlanadi.

Lingvistik birliklarni modellashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlariga asoslanadi. SHuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o'rtasidagi munosabatlarning barqaror va o'tkinchi (beqaror) turlarining ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun katta ahamiyatga ega.

Tilni modellashtirish muammosi o'tgan asrning 50-70 yillarida keng ilmiy jamoatchilik diqqatini jalb etdi. Bu muammoga bag'ishlangan qator asarlar maydonga keldi.<sup>1</sup>

Qachonki, fanning o'rganish obyekti sezgi a'zolarimiz ta'siriga berilishiga uni bevosita kuzatish imkoniyati bo'lmasa, ana shu vaqtda obyektни modellashtirishga katta ehtiyoj tug'iladi.

Obyektни modellashtirish umumilmiy metod sanaladi va u quyidagi tamoyillarga amal qiladi: 1) deduktivlik; 2) tafakkur eksperimentidan foydalanish; 3) modelni ideallashtirilgan obyekt sifatida talqin qilish.

Modellashtirish turli darajada bo'lishi mumkin. Obyektни umumlashtirish darajasiga ko'ra ayrim mualliflar modellashtirishni uch guruhga ajratadilar: 1) lingvistik faktни tavsiflashga qaratilgan analitik model; 2) oraliq model yoki

---

<sup>1</sup> Хомский Н. Синтаксические структуры: / Новое в лингвистике. Вып. 2. -М.: Иностран.литер., 1962; Ревзин И.И. Модели языка. -М., 1962; Лосев А.Ф. Введение в общую теорию языковых моделей. -М., 1968; Мельчук И.А. Опыт теории лингвистических моделей «смысл-текст». -М.:Наука. Главная редакц.вост.лит., 1974; Кебрина Н.А. Функциональная модель языка: / Взаимодействия языковых единиц различных уровней. -Л., 1981; Всеволодова М.В. К вопросу о системном описании моделей предложения: 11 Международный конгресс русистов-исследователей. -М., МГУ. //http: www. Philol.msu.ru/ rlc2004/ru/abstrakt/?id13=&type=rar.

tug'diruvchi model; 3) maksimal umumlashtirishga asoslangan sintezlovchi model.<sup>1</sup>

Modellashtirishning bunday darajalanishi ham bilish bosqichlarini o'zida namoyish etadi. Sintezlovchi model analitik modellar asosida, undagi ikkinchi darajali, nomuhim belgilarni chetlashtirish asosida hosil qilinadi.

Nomuhim belgilarni chetlashtirish abstraktsiyalashga olib keladi. SHuning uchun fanda abstraktsiyalashtirish katta ahamiyatga ega.

Abstraktsiyalashtirish ostida, odatda, o'rganilayotgan obyektning sezgi a'zolarimizga berilayotgan qator belgilaridan fikran eng muhimlari o'rtasidagi munosabatlarga tayangan tafakkur predmeti tushuniladi.<sup>2</sup>

Garchi har uch model insonning abstraktsiyalashtirish faoliyatiga asoslansa ham, lekin ular abstraktsiyalashtirish darajasini ifodalash nuqtai nazaridan farq qiladi. Uchinchi bosqichdagi model abstrak-tsiyalashtirishning kuchli darajasi ekanligi bilan xarakterlanadi.

Ayrim mualliflar abstraktsiyalashtirish darajasini to'rtga bo'ladilar: 1) tabiiy til; 2) obrazli shakldagi fikriy mazmun; 3) mantiqiy predmetlik qurilmalar oblasti; 4) matematik modellar oblasti.<sup>3</sup>

Bunda inson o'zining amaliy faoliyatida dastlabki uch bosqichdan, abstraktsiyalashtirishdan foydalanishi, oxirgi bosqichi esa maxsus fan vakillari tomonidan hosil qilinishi ta'kidlanadi.

Abstraktsiyalash darajasining uch yoki to'rt bosqichga bo'linishidan qat'iy nazar, har ikki holda ham zidlanishning ikki qutbiy a'zolari o'rtasida oraliq uzvning mavjudligi e'tirof etiladi.

Ikki qutb o'rtasidagi ana shu oraliq holatni Yu.N.Karaulov "oraliq til" deb nomlaydi.<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup> Киров Е.Ф. Теоретические проблемы моделирования языка. -Изд.Казанского университета,1989. -С.8

<sup>2</sup> Дмитриевская И.В. Системный подход и абстрагирование. / Системный анализ и научное знание. - С.153.

<sup>3</sup> Қаранг. Киров Е.Ф. Ўша асар, 14-бет.

<sup>4</sup> Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. -М.,1987.

Har qanday lingvistik tadqiqot kuchli darajadagi abstraktsiyaga asoslangandagina u chinakam haqiqatga erishadi. Ana shu kuchli darajadagi abstrakt qurilma ayrim mualliflar tomonidan kognitema atamasi bilan nomlanadi.

Bu atama tashqi til bilan intellektual faoliyat o'rtasidagi oraliq holatni ham o'zida birlashtiradi. Demak, kognitema atamasi modellash-tirishning turli darajasini o'z ichiga oladi.

Morfemik sath birliklari<sup>1</sup> fonologik sath birliklaridan ikki tomonlama mohiyat ekanligi, shakl va mazmun tomoniga ega bo'lgan yaxlitlik ekanligi bilan ajralib turadi. Shunday ekan, bunday birliklarda invariant va variant munosabati ham ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi: a) shakliy invariant-variantlilik va b) mazmuniy invariant-variantlilik.

Tilni belgilar sistemasi sifatida e'tirof etgan F.de Sossyur belgini ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik deb qaraydi. SHu bilan birga, lingvistik belgining ifodalovchisi bilan ifodalanmishi o'rtasidagi munosabat shartli, erkin ekanligini ta'kidlaydi.<sup>2</sup>

Shuni ta'kidlash kerakki, struktur tilshunoslik an'anaviy tilshunoslikdan bevosita kuzatishda berilgan moddiy vositalarni emas, balki shu vositalar orqali voqelanish imkoniyatiga ega bo'lgan abstrakt birliklarni o'rganishga e'tiborning qaratilishi bilan farq qiladi. Xususan, L.Elmslevning ta'kidlashicha, real til birligi tovush yoki yozuv belgisi ham emas, ma'no ham emas, real til birligi tovush yoki yozuv belgisi va ma'no orqali namoyon bo'lgan munosabat elementlaridir. SHunday ekan, uning fikricha, masalaning mohiyati tovush yoki yozuv ifodasi va ma'nolarda emas, balki ularning nutq zanjirlaridagi va grammatika tarkibidagi o'zaro munosabatidadir. Ana shu munosabat til sistemasini tashkil etadi va ana shu sistema u yoki bu tilning o'ziga xos tomonini tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> Морфемаларнинг икки тури ажратилади: ўзак морфемалар ва аффиксал морфемалар. Ушбу морфемалар етакчи ва кўмакчи морфемалар сифатида ҳам эътироф этилади. Биз ишимизда ўзак, етакчи морфема атамалари ўрнида лексик морфема атамасини қўллашни лозим топдик.

<sup>2</sup> Соссюр Ф.де Курс общей лингвистики. /Труды по общему языкознанию. -М.:Прогресс, 1977.

Bu munosabatlarning turli moddiy vositalar yordami bilan voqelanishi esa sistema uchun katta ahamiyatga ega bo'lmaydi.<sup>1</sup>

Shuningdek, u tilda ifoda plani bilan mazmun planini ajratar ekan, bu planlarning har biri substantsiyasi va o'z shakliga ega bo'lishini bayon qiladi. Uning ta'kidlashicha, shakl barqaror va belgilovchi bo'lib, substantsiya o'zgaruvchan, tobe xususiyatga ega. SHunday qilib, lingvistik belgining ifoda tomoni ham, ma'no tomoni ham imkoniyat va voqelik dialektikasini o'zida namoyon etgan holda ifoda shakli va ifoda substantsiyasi, ma'no shakli va ma'no substantsiyasiga ega bo'ladi.

Lingvistik belgilarning ma'no shakli va substantsiyasida shakl substantsiyasiga nisbatan belgilovchi va barqaror bo'lganligi uchun tilshunoslikning asosiy tekshirish obyekti lingvistik belgilarning shakli bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi.

L.Elmslevning shakl substantsiyasi haqidagi fikrlari keyinchalik mohiyat jihatdan saqlanib qolgan bo'lsa ham, lekin belgilovchi, barqaror tomonini ifodalash uchun substantsiya, tobe, o'zgaruvchan tomonini ifodalash uchun esa shakl atamasi qo'llanila boshlandi.

Demak, substantsiya va shakl atamasi L.Elmslevning nazariyasi bilan boshqa tilshunoslar, xususan, S.N.Ivanov tavsiya etgan substantsional morfologiyada imkoniyat - voqelik dialektikasini namoyish etish uchun qo'llanilsa ham, lekin ular ikki yo'nalishda o'zaro o'rin almashinadi. Birida imkoniyatni ifodalash uchun qo'llanilgan atama voqelikni, ikkinchisida voqelikni ifodalash uchun qo'llanilgan atama esa imkoniyatni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Lingvistik belgining ifoda tomoni bilan ma'no tomoni o'zaro kommutatsiya munosabati bilan bog'lanadi. Buning mohiyati shundan iboratki, ifoda tomoni bilan ma'no tomoni o'rtasida doimiy bog'liqlik bo'lib, bu bog'liqlik til egalari xotirasida o'rinishadi. Ifoda planidagi o'zgarish ma'no planida ham o'zgarishga olib keladi. Masalan, non leksemaning birinchi tovushini t, q, x kabi tovushlarga

---

<sup>1</sup> Ельмслев Л. Метод структурного анализа в лингвистике./ Звегинцев В.А.История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Часть II. М.:Учпедгиз, 1960. -С.49.

o'zgaruvi ma'noning o'zgaruviga, demakki, *ton*, *qon*, *xon* boshqa - boshqa mohiyatlarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi.

Lingvistik belgining ifoda tomonidagi muayyan tovushlarning o'zgarishi ma'no tomonining o'zgarishiga olib kelmasa, ifoda tomonining bunday o'zgarish munosabatida bo'lgan unsurlar munosabati substitutsiya munosabati hisoblanadi.

O'zaro kommutatsiya munosabatida bo'lgan ifoda tomoni bilan ma'no tomoni yaxlitligi va bu yaxlitlikning til egalari xotirasida imkoniyat tarzida mavjud bo'lishi til sistemasining mustaqil birliklari hisoblanadi va u invariant sanaladi.

O'zaro substitutsiya munosabatida bo'lgan elementlar esa bir invariantning turli variantlari hisoblanadi. Lingvistik belgilarning bu ikki plani o'rtasidagi invariant-variantlilik munosabatini yoritishga bag'ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi.<sup>1</sup>

Lekin bu asarlarda shakl va mazmun planlaridagi invariant-variantlilikni bir-biriga aralashtirish holatlari uchraydi.

Xususan, K.I.Xodovanning ta'kidlashicha, grammatikaning birliklari o'zida shakl va mazmun planlarini mujassam etadi. Shuning uchun tadqiqotchi oldida grammatik sathda qarama-qarshiliklar sistemasini topish va shakl plani hamda mazmun planining bog'lanish xususiyatlarini belgilash kabi masalalar turadi. Bunday bog'lanishlar bir xil mazmunning bir necha shakllari orqali namoyon bo'lishi bilan murakkablashishi mumkin. SHuning uchun grammatikani sistema sifatida o'rganishda deyarli barcha qiyinchiliklar o'xshashlik muammosini hal etishda paydo bo'ladi.

Uning fikriga ko'ra, o'xshashlik muammosining asosiy aspekti lingvistik birliklarning variantlanish aspektidir. Olima variantlilikning mazmun va shakl planlaridagi turlarini farqlaydi. Mazmun variantlilikida mazmun o'zgargan holda, shakl barqaror qoladi. Shakl variantlilikida esa, aksincha, shakl o'zgaruvchan, mazmun barqaror qoladi. Til negizini ma'no birliklarining sistem tuzilishi tashkil etadi. Sistem munosabatlar mazmun planida namoyon bo'ladi va grammatik

---

<sup>1</sup> Горбачевич. К.С. Вариантность слова и Языковая норма. -Л.: Наука, 1978.; Ходова К.Н.Варьирование и синонимия в грамматике старославянского существительного.//Вопр.язык., -№5, 1975.

sistemani qurishda mazmun planidan borishga to'g'ri keladi. Tilga bunday yondashuvda funksiya shakldan oldin keladi. Shuning uchun mazmuniy birliklar mazmun planiga mo'ljallanishi kerak.

Shunday qilib, shakllarning mazmun birligi haqida faqat sintaktik pozitsiya birligi shartiga amal qilgan holda gapirish mumkin. Masalan, yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, fe'l pristavkasi pri- va jo'nalish kelishigida (roditelniy padej) qo'llanuvchi ot bog'lovchisi ma'no jihatdan ko'p umumiylikka ega bo'lishiga qaramay, bir birlikning manifestatsiyalari hisoblanmaydi va shuning uchun variantlar ham, sinonimlar ham bo'la olmaydi.<sup>1</sup>

Variantlilik lingvistik birliklarning bir planiga nisbatan belgilansa ham, lekin invariant-variantlilik imkoniyat va voqelik dialektikasi asosida emas, balki bir voqelikning ikkinchi voqelikka munosabatiga ko'ra belgilanadi.

Xususan, R.Shukurov lingvistik birliklarning mazmuni saqlagan holda shakl o'zgarishiga olib keluvchi holatlarda shakl o'zgargan holatini o'zgarmagan holatiga nisbatan variant deb hisoblaydi. Buning natijasida bevosita kuzatishda berilgan bir moddiylik ikkinchi moddiylikka nisbatan invariant hisoblanadi. Bunday holda me'yor invariant, me'yorning buzilishi esa variant sanaladi.

Imkoniyat-voqelik dialektikasiga amal qilinsa, har qanday voqelangan moddiy vosita muayyan imkoniyatning (invariantning) turli variantlari sanaladi. Bu jihatdan R.SHukurov invariant sifatida keltirgan birliklarning barchasi real, nuthiy jarayonda voqelangan, akustik-artikulyatsion xossaga ega bo'lgan variantlar sirasida turadi.

Shunday qilib, fonologik sathdan yuqori sath birliklari shakl va mazmun tomoniga ega bo'lgan ikki tomonlama mohiyat bo'lganligidan, invariant-variantlilik munosabati har ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi: shakliy invariant-variantlilik va mazmuniy invariant-variantlilik.

Har ikki invariant-variantlilik umumiy birliklarning xususiy-liklar orqali voqelanishini aks ettirar ekan, oraliq holatga, alohidaliklarning mavjud bo'lishiga

---

<sup>1</sup> Ходова К.И. Ўша асар, ўша бет.



yo'l qo'yadi. Xususan, har bir leksik morfema umumlashma, mohiyat, sistema sifatida shakl va mazmun munosabati birligidan tashkil topadi. SHu bilan birga u bevosita kuzatishda variantlar orqali namoyon bo'lishda leksik morfema bilan variant oralig'ida shakliy umumlashma va mazmuniy umumlashmalarning mavjud bo'lishiga yo'l qo'yadi.

Shakliy umumlashma uchun nomema, kinema singari "ema" bilan tugovchi atamalar qo'llanilsa, mazmuniy umumlashma uchun esa semema, plerema kabi atamalar qo'llaniladi.

Leksik morfemaning nomema tomoni ham, semema tomoni ham umumlashma sifatida o'z ichki tuzilishiga ega bo'lib, bir necha shakliy va mazmuniy variantlardan tashkil topadi. Har bir mazmuniy variant uchun sema yoki leksik mazmuniy variant (LMV) atamasi qo'llaniladi.

Leksik shakliy variant uchun sema kabi maxsus atama qo'llanilmaydi. Leksik shakliy variant (LSHV) atamasi bilan yuritiladi.

Agar mazmun planida sememaning tarkibiy uzvlari uchun **sema** atamasidan foydalanar ekanmiz, shakliy tomoni, nomemaning xuddi shunday uzvlar uchun semema-semaga analogiya yo'li bilan nomema-nom zidlanishidan foydalanish ham mumkin.

## **II BOB. TILNING SATHLI TUZILISHI VA SATH BIRLIKLARINI MODELLASHTIRISH MUAMMOLARI**

### **2. 1. Tilning sathli tuzilishi va sath birliklari o'rtasidagi munosabatlar**

Tilning o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi bir necha qatlamlardan iborat ekanligi haqidagi qarash o'zining uzoq tarixiga ega. Xususan, til tuzilishining an'anaviy tilshunoslikda uch qismga: (fonetik, leksik va grammatik qismlarga) bo'linishi va bu qismlarni o'rganadigan tilshunoslikning uchta bo'limining ajratilishi tilni ana shunday qatlamlar butunligi sifatida tushunishning yorqin namunasidir.

Lekin sistemaviy-struktur tilshunoslik shakllangunga qadar tilning bunday ichki tuzilishini qatlam sifatida tushunish amaliy kuzatishning ilk natijalari bo'lib, til stratifikatsiyasi ilmiy jihatdan asoslanmagan edi.

Sistemaviy-struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi til ichki tuzilishining o'ziga xos xususiyatini yoritishga, ichki tuzilish birliklarining oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich rivojlanib borishi, quyi bosqich birligi o'zidan yuqoriroq bosqich birligi tarkibida o'z funksiyasini ko'rsatishini ilmiy asoslab berdi.

Shunday qilib, XX asrning 50- yillaridan boshlab til sathi (lingvistik sath) tushunchasi maydonga keldi. Bu tushunchaning shakllanishi va ilmiy asoslanishida E.Benvenist hamda bir qator deskriptiv tilshunoslar, xususan, Dj. Treyjer, K.Poyk, Ch.Xokket, Z.Xarris singari olimlarning xizmati katta bo'ldi.

Lingvistik sath tushunchasining paydo bo'lishiga tilning ikki tomonlama mohiyat ekanligining e'tirof etilishi, shakliy va mazmuniy tomonlarning har biri o'ziga xos ichki tuzilishga ega ekanligi, ularning har qaysisi o'z ichki uzvlari munosabatidan tashkil topgan kichik sistema ekanligi, shunday qilib, tilning tuzilishi sistemalar sistemasi tartibida bo'lishi, ular o'rtasidagi munosabat til mexanizmini harakatga keltirish haqidagi qarashlarning maydonga kelishi turtki bo'ldi.

Garchi lingvistik sath tushunchasi keyinchalik bir qator tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa ham, lekin bu atama juda keng ma'noda qo'llanila boshladi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, lingvistik sath kontseptsiyasi tarafdorlarini birlashtirib turgan umumiy jihatlar mavjud. U ham bo'lsa tilning tipologik tabiatini nisbiy avtonom sistemalar (kichik sistemalar) majmuasi sifatida tasavvur qilish, har bir kichik sistema chegaralangan miqdordagi elementlardan tashkil topadi va bu elementlar shu kichik sistema nuqtai nazardan mayda bo'laklarga bo'linmaslik xususiyatiga ega deb e'tirof etish, shuningdek, har bir kichik sistema o'z ichki elementlarining bir-biri bilan bog'lanish qonun-qoidalariga ega ekanligini e'tiborga olishdir.

Sath tushunchasining ma'lum til birliklari yig'indisi tushunchasi bilan aloqasi borligi shubhasiz. Lekin sathni belgilashda qanday lingvistik belgilarga tayanish masalasini aniqlash katta ahamiyatga ega.

V.M.Solntsev fikricha, tilda yasama so'zlar yig'indisi qo'shma so'zlar yordamida hosil bo'lgan birliklar yig'indisidan farq qiladi. SHuningdek, o'zak morfemalar yordamida hosil bo'lgan birliklar yig'indisi affiks morfemalar yordamida hosil bo'lgan birliklardan farq qiladi. Ana shu bir-biridan farq qiladigan birliklar yig'indisiga asoslanib, "Yasama so'zlar sathi", "Qo'shma so'zlar sathi", "O'zak morfemalar sathi", "Affiks morfemalar sathi" kabi sathlarni ajratish sath tushunchasini chegarasiz bir tushunchaga aylantirib yuboradi. Tilda nechta til birliklari guruhlanishi mavjud bo'lsa, shuncha til sathini ajratishga olib keladi. Xususan, N.A.Slyusareva yordamchi so'zlar guruhini mustaqil so'zlar guruhidan ajratgan holda servologik sath, E.Benvenist fonemalarning farqlovchi belgilarini alohida sath – merizmatik sath sifatida ajratganini eslash kifoya.

Til birliklarini muayyan guruhlarga turli belgilar asosida birlashtirish mumkin. SHunga muvofiq ravishda sath tushunchasi nisbiy bo'lib qoladi va bu tushuncha ayrim birliklarning ma'lum belgi asosida birlashgan guruhining oddiy nomiga aylanib qoladi.

Tilning ichki tuzilishini sathlarga ajratishda ana shunday boshboshdoqlikni bartaraf qilish uchun til birliklarining doimiy, barqaror sathlarini ajratishga imkon beradigan belgilariga tayanish lozim. Ana shunday belgi til birliklarining pog'onaviylik belgisidir. Xuddi ana shu belgi deskriptiv tilshunoslik vakillari tomonidan tilni sathlarga ajratishning asosiy belgisi sifatida e'tirof etilgan edi.

Lisoniy birlikning ana shu pog'onaviylik belgisi lingvistik sathni belgilashning asosiy tamoyili sifatida e'tirof etilganda til ichki tuzilishining pog'onaviylik tabiati to'g'ri yoritilgan bo'ladi.

Bunga muvofiq, lingvistik sath tushunchasi ostida o'zaro pog'onaviy munosabatda bo'lgan nisbiy bir xil birliklar munosabati anglashiladi. Bir sath birliklari boshqa sathga mansub (o'zidan katta yoki o'zidan kichik) bo'lgan birliklar bilan pog'onaviy munosabatda bo'ladi.

Bunda quyi sath birligining yuqori sath birligidan tashkil topish, quyi sath birligi yuqori sath birligi tarkibiga kirish<sup>1</sup> xususiyati aks etadi.

Ana shunday birliklar majmuasi nisbiy bir xil bo'lgan birliklar ustparadigmasini tashkil etadi va ular shu ustparadigma doirasida ma'lum sinfga birlashadi (fonemaning turli sinflari, morfemaning turli sinflari va boshq.).

Har bir sinf a'zolari o'zaro sinfga xos bo'lgan belgisi asosida muayyan paradigmalarga birlashish bilan birgalikda bir-biri bilan ketma-ket bog'lanib, sintagmatik zanjirni hosil qiladi.

Shunday qilib, tilning ko'psathlilik kontseptsiyasi tarafdorlarining ko'pchiligi uchun umumiy tomon tilni chegaralangan miqdordagi birliklardan tashkil topgan nisbiy avtonom kichik sistemalarning integrativ munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik sifatida e'tirof etishdir<sup>2</sup>.

Til sathlarini e'tirof etuvchi tilshunoslarning fikricha, turli sath birliklari o'rtasida integratsion munosabat mavjud bo'ladi. Bu kontseptsiya tarafdorlari til sathlari o'rtasidagi aloqani e'tiborga olgan holda, tilga yagona ierarxik shakllangan sathlar sistemasi sifatida qaraydilar. Tilning ichki tuzilishiga bunday yondashuv

---

<sup>1</sup> Марков М.А. О понятии первоматерии. - Вопросы философии. 1970. №4

<sup>2</sup> Общее языкознание. Внутренняя структура языка. М., 1971, с.97.

kompozitsion kontseptsiya deb yuritiladi va u reprezentativ kontseptsiyaga qarama-qarshi qo'yiladi.

Kompozitsion kontseptsiyaga muvofiq, tilning ichki tuzilishi bir xil yo'nalishdagi pog'onalanishdan (ierarxiyadan) iborat. Bu shundan iboratki, fonema, morfema va undan katta birliklar o'rtasida bir xil yo'nalishdagi pog'onali munosabat mavjud. Quyi sath birligi yuqori sath birligi uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Quyi sath birligi yuqori sath birligi tarkibida uning tarkibiy qismi (konstituenti) sifatida vazifa bajaradi. SHuning uchun til sathlari o'rtasida quyidan yuqoriga yo'nalgan munosabat e'tirof etiladi va bu munosabat bir xil turdagi, konstituentiv munosabat sanaladi. Konstituentiv munosabat "...dan tashkil topadi", "...ga kiradi" sxemasini o'zida namoyon etadi.

Har bir sath birliklari umumiylik va xususiylik dialektikasini o'zida namoyon etadi. Imkoniyat tarzidagi umumiy, invariant birliklar bevosita nutqiy jarayonda turli- tuman variantlar orqali namoyon bo'ladi.

Ana shunday invariant-variant munosabati tilning hamma sath birliklari uchun xarakterlidir. Bevosita sezgi a'zolarimizga ta'sir etgan birliklar variantlar sanaladi. Bu variantlarni bir-biriga solishtirish orqali ular zamirida yotgan substantsiyani belgilash asosida invariantlar aniqlanadi.

Fonologik sathda fonemalar invariant birliklar sanaladi. Ularning har biri bevosita kuzatishda, nutqiy jarayonda bir necha variantlar orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham bevosita kuzatishdagi matndan ajratilgan eng kichik segment birliklar invariant birlik bo'lgan fonemalar emas, balki uning variantlari sanaladi.

Fonologik sathdan yuqori sath birliklarining barchasi ikki tomonlama mohiyat sanaladi. SHunga muvofiq, ularning bevosita kuzatishda berilgan variantlari ham ikki planda amalga oshadi. Bunga sabab ma'noli birliklarning ifoda tomonining ichki tuzilishi bilan mazmuniy tomonining ichki tuzilishi o'rtasida ko'pincha nomuvofiqlik bo'ladi.<sup>1</sup> Ayniqsa, bunday holat tovush birliklari chegarasi bilan mazmuniy birliklar chegarasi o'zaro muvofiq kelmaganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'zi qo'shilayotgan asos

---

<sup>1</sup> Общее языкознание. Внутренняя структура языка. С. 93.

qismning oxirgi tovushi ta'sirida **-ga, -ka, -qa, -g'a** singari bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, ularni bitta invariant morfemaning turli moddiy (shakliy) ko'rinishlari, variantlari ekanligiga shubha qilmaymiz.

Shu bilan birga, bu morfema nutqiy jarayonda xilma-xil ma'nolarini namoyon qiladi. Masalan, jo'nalish kelishigi qo'shimchasi jo'nalish ma'nosidan tashqari tenglik (evaz), qiyos singari ma'nolarni, ya'ni semalarni ifodalaydi. Jo'nalish kelishigidagi leksemaning boshqa leksema bilan bog'lanishida ana shu semalardan bittasi ro'yobga chiqadi. Shunday ekan, ayrim tilshunolar morfemaning shakl va ma'no tomonini farqlash uchun shakl tomonini **nomema**, ma'no tomoni uchun esa **nomema** (A. Martine), **semema** (Ufimtseva, Novikov) atamalaridan foydalanadilar.

Shunday qilib, morfema bevosita kuzatishda ham shakliy, ham mazmuniy variantlar orqali yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, har bir tilda Elementlar muayyan sinf yoki paradigmani tashkil etgan variantlar qatori orqali gavdalanadi. Tilning chiziqli xarakteriga ko'ra sinfning vakili sifatida bittasi namoyon bo'ladi.<sup>2</sup> Sinf sifatida e'tirof etilayotgan birlik – umuman so'z, umuman morfema kabi abstrakt birlik sanaladi.. Umuman so'z, umuman morfemaning konkret qo'llanilishi virtual belgining aktuallashishidir. Morfemaning shakliy variantlari uchun morfemik shakliy variant (MSHV), mazmuniy variantlari uchun esa morfemaning mazmuniy variantlari (MMV) atamaları qo'llaniladi.

Morfema vazifasi va ma'nosiga ko'ra leksik va grammatik morfemalarga bo'linadi. Yuqorida grammatik morfemalarning ikki planda variantlanishi haqida fikr yuritildi. Xuddi ana shu holat leksik morfemalarga (leksemalarga) ham daxldordir.

Leksemaning shakliy variantlari uchun leksik-shakliy variantlar (LSHV), mazmuniy variantlari uchun esa leksik-mazmuniy variantlar (LMV) atamaları qo'llaniladi.

---

<sup>2</sup> Солнцев В.М. Ўша асар, С.77.

Xullas, tilning barcha sath birliklari umumiylik-xususiylik, imkoniyat-voqelik dialektikasini o'zida namoyon etgan holda, invariant-variant munosabati birligidan iborat bo'lib, imkoniyat, mohiyat xarakteriga ega bo'lgan invariant bevosita kuzatishda, nutqiy jarayonda variantlar orqali namoyon bo'ladi. Invariant-variant munosabati tilning barcha sath birliklari uchun umumiy, universal munosabatdir.

## 2.2. Morfologik birliklarni modellashtirish

Morfema grekcha *morphe* – *shakl* ma’nosini bildiruvchi tilning asosiy birliklaridan biri. Ma’lum fonetik shaklga (ifodalovchiga) aniq ma’no (ifodalanmish) teng keladigan minimal birlik sifatida boshqa shu turdagi birliklarga ajralmaydi. Morfema nutqiy matnni ikki tomonlama – tilni belgilariga ajratuvchi birinchi bo’linishning (A.Martine) mahsuli sifatida o’zi bilan muayyan bir ierarxik qatorga joylashgan va bir tomonlama formal bo’linish sanalgan ikkinchi turdagi bo’linishning mahsuli bo’g’indan farq qilishi bilan xarakterlanadi.<sup>1</sup>

L.V.Shcherbaning ta’kidlashicha, tilshunoslikka “morfema” atamasini I.A.Boduen-Kurtene olib kirgan. U bu atama orqali so’zning eng kichik ma’noli qismini belgilagan. Uning fikricha, uzviy bog’liq muayyan nutq gaplarga yoki iboralarga, gaplar so’zlarga, so’zlar morfologik bo’g’inlar yoki morfemalarga, morfemalar fonemalarga bo’linadi. U N.Krushevskiy ilmiy qarashlari tahliliga bag’ishlangan asarida “Nutqni gaplarga, gaplarni so’zlarga, so’zlarning morfologik birliklarga bo’linishiga qarshi fikr yuritish mumkindir... Ammo morfologik birlikda (Kurtene uni “morfema” deb nomlaydi) bu bo’linish tugaydi”.

Tilshunoslikda deskriptivistlarning qarashlari bilan bog’liq morfemaning yana bir talqini uchraydi. Ushbu keng tarqalgan talqin bo’lib, ularning ta’limotlarida “morfema” atamasi faqat so’z qismlarinigina emas, balki so’zlarni ham belgilaydi. U so’zlarning tahlilidagina emas, balki morfemalarning turlicha birikuvlari sifatidagi so’z birikmalari va gaplarning tahlilida ham ishlatiladi. Buning natijasida so’z tushunchasini grammatik tahlildan chiqarib tashlash va morfemani tilning asosiy birligi sifatida belgilash tendensiyasi vujudga keldi.

Morfemani bunday tushunish F.de Sossyurdan boshlangan. Uning ta’kidlashicha, tub va bo’linmas birlik bo’lgan har qanday so’z ibora a’zosi,

---

<sup>1</sup> ЛЭС. М.: СЭ, с.312.



ya'ni sintaktik faktdan farq qilmaydi: uni tashkil etuvchi sath birliklarining tartibi so'z birikmalari hosil qilishning asosiy tamoyillariga bo'ysunadi.

Shunga asoslanib til birliklarining sistem xususiyatlarini ko'rib chiqishda "morfema" atamasini u belgilagan birliklarni tilning boshqa birliklaridan farqlash mumkin bo'lgan nuqtai nazardan qo'llash kerak.

V.M.Solntsev morfema atamasini turli manbalarda bir-biridan farq qiluvchi muayyan belgilar asosida ajratilishini hisobga olib, ularni umumlashtirgan holda quyidagicha izohlashni taklif qiladi:

- 1) Vanderies morfemasi uchun asosiy xarakterli jihat yordamchilikdir, ya'ni morfema sifatida tilning ohang, urg'u va birliklarning joylashish imkoniyatini e'tiborga oluvchi vositalar tushuniladi;
- 2) Blumfeld morfemasi uchun asosiy xususiyat minimallikdir: morfemalar til sistemasidagi o'rni va boshqa birliklarga bo'lgan munosabatidan qat'iy nazar, eng qisqa, ma'noli qismlardir;
- 3) Boduen morfemalari uchun eng xarakterli tomon ularning til sistemasidagi o'rni va boshqa birliklarga munosabati asosidagi minimallikdir: morfemalar so'zning minimal ma'noli qismlaridir.

G.Paul ma'noli so'zlar faqat morfemalarninggina emas, balki barcha turdagi yordamchi so'zlarning rivojlanishi uchun asosdir. Uningcha, predlog va bog'lovchilar mustaqil so'zlar asosida yuzaga keladi.

Turk va fin-ugor tillarining strukturasi tadqiq qilib, B.A.Serebryakov muayyan xulosaga keladi va so'z hamda so'z birikmalarining tarixiy o'zgarishini tahlil qilish asosida uch xil kategoriyani ajratadi:

- a) leksik ma'noli so'zlar;
- b) so'z-qurilmalar (konstruktlar);
- v) morfemalar.

U morfemalarning tarixan to'la leksik ma'noli so'zlar bo'lganligini, hozirda bu imkoniyatini yo'qotganini ko'rsatib o'tadi.

Morfemaga nisbatan so'zning birlamchiligi zamonaviy tillarda ham e'tirof etiladi, o'z tarkibidan morfemalarga ajratilmagan so'zlarning mavjudligi haqidagi muammoni o'rtaga tashlash imkonini beradi. So'z va morfema munosabatlarini yuqoridagi holda diaxron aspektda o'rganish ular o'rtasidagi munosabatlarni sinxron planda tekshirilganda ham yetarlicha samara beradi.

Til muayyan ichki tuzilishga ega bo'lgan butunlik sanalib, uning sathlari o'zaro uzviy aloqada ekanligi e'tirof etilsa, morfemikaning birligi bo'lgan morfemaning boshqa sath birliklari bilan chambarchas munosabatini hisobga olish zarur. Ya'ni fonetika morfemika bilan, morfemika morfologiya bilan uzviy bog'lanadi.

Har qaysi quyi sath birliklari o'zidan bir pog'ona yuqori bo'lgan sath birligi uchun material sifatida xizmat qiladi. Har qanday birlik o'zining haqiqiy funksiyasini yuqori sath birligi doirasida namoyon qiladi. Ushbu holat til tuzilishining ko'p sathlilik natijasidir.

Morfemalarning sintagmatik munosabatga kirishuvi ijtimoiy-ruhiy, umumiy birlikni – invariantni real talaffuz qiluvchi, bevosita kuzatishda namoyon bo'luvchi, sezgi a'zolarimizga ta'sir etuvchi ma'lum variantlar holda ifodalanishini ko'rsatadi. Morfemalar ham bevosita kuzatishda yondosh allomorflarning fonetik tuzilishiga moslashgan holda qator variantlariga ega bo'ladi. Jumladan, o'zbek tilidagi jo'nalish kelishigining til sistemasidagi invariant holati faqat bitta morfema (-ga) bilan belgilansa-da, -ga, -ka, -qa, -a singari variantlari mavjud. Bu variantlarning har biri o'ziga xos qo'llanish imkoniyatiga ega ekanligi turlicha qurshovlarda yuzaga chiqadi. Bu variantlarning barchasi tilning sistema – funktsiya munosabatidagi butunlik ekanligini, invariant-variantlilik, umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa dialektikasining tilda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

D.Nabieva ilmiy manbalarda til ichki tuzilishini sathlarga ajratishning ikki tamoyili asosida leksik sath va uning birligiga ikki xil nuqtai nazardan qaralishini, til birligiga qarab sathlarga ajratish tamoyiliga ko'ra morfemik sathdan so'ng uning birligi leksema hisobga olinishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, leksema alohida til birligi sifatida qaraladimi yoki morfemaning bir turi sifatida qaraladimi, bundan qat'iy nazar, u til sistemasida mavjud va barcha til birliklari singari o'zining funktsiyalashish jarayonida imkoniyat va voqelik, umumiylik-xususiylik dialektikasini o'zida namoyon etadi.

Hozirgi kunda morfema alohida til birligi sifatida tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa ham, lekin bu atamaning mundariyasi bo'yicha xilma-xil fikrlar mavjud.

Avvalo, morfema real qurshovdan ajralgan abstrakt birlikmi yoki nutqiy zanjir tarkibidan ajralib chiquvchi eng kichik ma'noli birlikmi degan savolga to'xtaladigan bo'lsak, shu kungacha bo'lgan tilshunoslar bu masalaga ikki xil yondashib keldilar.

Birinchi guruhdagi olimlar morfemaga nutqiy zanjir tarkibidan ajralib chiquvchi so'zning eng kichik ma'noli qismi sifatida yondashadilar. SHuning uchun ham ular so'zning tarkibi haqida bahs ketganda, morfema yuzasidan fikr yuritadilar.

Keyinchalik morfemik sath ajratilishi bilan uning birligi bo'lgan morfemani o'rganuvchi tilshunoslikning morfemika bo'limi ham ajralib chiqdi. Tilshunoslikning bu bo'limi ajralib chiqishi bilan, uning nima haqda bahs yuritishi masalasida ham **morfemaga** ikki xil yondashuv ta'siri kuzatildi. Morfema va morfemikaga bunday ikki xil yondashuv o'zbek tilshunosligida ham yorqin namoyon bo'ldi.

Xususan, o'zbek tilshunosligiga morfema va morfemika atamalarini olib kirgan prof. A.G'ulomov quyidagilarni yozadi: "O'zak va affikslarning analizi morfologiyada ham, so'z yasalishida ham uchraydi, lekin bu ikki sohaning analizi – hodisaga qanday nuqtai nazardan yondashishi har xil, shunday bo'lsa ham, bari bir, har ikki soha uchun umumiy bo'lgan hodisalar ham bor. Shunga ko'ra, keyingi

vaqtlarda bularni yoritishning yangi sxemalari paydo bo'ldi: dastlab morfemalarning har ikki sohaga aloqador bo'lgan tomonlari ayrim beriladi, bu ayrim qism morfemika deb ataladi, keyin so'z yasalishi, undan keyin morfologiya bayon qilinadi. Bu yangi tartib ilmiy jihatdan puxta asoslangan bo'lib, praktik tomondan ham afzalliklarga ega".<sup>1</sup>

Muallif so'zning morfematik tuzilishi va so'zning yasalish tuzilishini farqlaydi. Uning ta'kidlashicha, so'zning morfematik tuzilishi nechta morfemadan iboratligini o'z ichiga oladi. Yasalish tuzilishi esa doimo ikki qismni – yasovchi o'zak yoki yasovchi negiz va yasovchi affiksni o'z ichiga oladi. Lekin keyinchalik prof. A./ulomov morfemaning til stratifikatsiyasidagi mustaqil til birligi ekanligini angelaydi. Xususan, "O'zbek tili morfem lug'ati"ning I-ilovasida u morfemaga "ma'no anglatadigan minimal eng – qisqa, eng kichik – bo'linmas element", deb ta'rif beradi.<sup>2</sup>

Prof. Y.Tojievning o'zbek tili morfemikasiga doir alohida asar nashr etgani o'zbek tilshunosligi tarixida katta voqea bo'ldi. Bu asarda morfema so'zning eng kichik ma'noli qismi, morfemika esa so'zning qanday ma'noli qismlardan tashkil topishi haqidagi fan sifatida izohlanadi.<sup>3</sup>

Morfema va morfemikaga bunday qarash tilshunoslikda uzoq davrlar hukm surgan verbotsentrik nazariyaning ta'siridir. Chunki tilshunoslik fan sifatida shakllangan davrdan tortib, to sistemaviy-struktur tilshunoslik paydo bo'lgunga qadar bo'lgan davrda asosiy til birligi sifatida so'zni e'tirof etish, qolgan barcha birliklarni so'z asosida izohlash an'anaga aylandi.

So'zdan kichik birliklar so'zning segment birliklari sifatida, so'zdan katta birliklar esa so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan birlik sifatida izohlanadi.

Ko'rinadiki, tilning barcha birliklari so'z asosida o'rganildi, ana shundan keltirib chiqarildi. So'z tayanch nuqta bo'lgani uchun morfema ham so'z tarkibida izohlandi.

---

<sup>1</sup> Ўзбек тили грамматикаси. 1 том. Т.: Фан, -Б. 1975.

<sup>2</sup> Гуломов А., Тихонов А.Н., Қўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1977. –Б.365

<sup>3</sup> Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. -Т.: Республика ўқув-услугий идораси, 1992. –Б.3.

O'tgan asrning 20- yillaridan boshlab tilshunoslikda uzoq davr hukm surgan glossotsentrik nazariyaga qarshi morfotsentrik nazariya maydonga keldi. Bu qarashga muvofiq, til tizimidagi markaziy eng kichik ma'noli birlik morfema hisoblanadi. qolgan barcha birliklar morfema asosida izohlanadi.

Morfemalarni moddiy jihatdan shakllantiruvchi va ularning ma'nosini bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik birlik fonema, morfemaning morfema bilan qo'shiluvidan hosil bo'lgan birliklar konstruktsiya hisoblanadi.<sup>1</sup>

Ko'rinadiki, morfotsentrizm yo'nalishiga ko'ra morfemadan boshqa barcha til birliklari morfema asosida belgilanadi.

Morfemaga bunday qarash uni nutqiy qurshovdan holi bo'lgan mustaqil til birligi sifatida izohlashga imkon beradi. O'zbek tilshunosligida ham 70 – 80- yillardan boshlab morfemaga ana shunday yondashuv, morfemikani esa morfemalar va ularning nutqiy zuxurlanishi haqidagi ta'limot ekanligi e'tirof etila boshlandi.

Xususan, akademik A.Hojiev morfemikaning obykti haqida to'xtalar ekan, quyidagilarni yozadi: “Morfemika so'zning necha morfemadan tashkil topishini o'rgatmaydi, balki morfemalarning turini, har bir turga xos xususiyatlarni o'rganadi”.<sup>2</sup>

Morfemikani paradigmatic va sintagmatic aspektda o'rgangan T.Mirzaqulov bu ikki yo'nalish yuzasidan o'z munosabatini bildirib, shunday deydi: “Morfema so'z tarkibida” printsiptan farqli holda “morfema til sistemasida” printsiptiga tayanish morfemika obyktini keng planda olib qarash, morfemaga xos belgilarni to'liqroq kuzatish imkonini beradi”.<sup>3</sup>

Aslida morfemaga yuqoridagi kabi ikki xil yondashuv bir narsaning ikki tomonidan biriga e'tiborning qaratilishi natijasidir. Morfemaga so'zning tarkibiy qismi sifatida yondashuv uning nutqiy jarayondagi voqelanishiga e'tibor qaratsa, “morfema til sistemasida” tamoyili esa nutqiy jarayonda turlicha voqelanish

<sup>1</sup> Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. -М.: Иностран.литер., 1959. -С.111.

<sup>2</sup> Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. Тошкент:Ўқитувчи, 1989. –Б.9.

<sup>3</sup> Мирзакулов Т. Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспекти ва уларнинг муносабатлари. -Хўжанд.1992; Шу муаллиф. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари. Филол.фан.докт....диссерт. автореф. -Тошкент, 1994.

imkoniyatiga ega bo'lgan umumlashma, abstraktsiyani belgilashga va ularni guruhlarga ajratishga asosiy diqqatni jalb qiladi.

Ko'rinadiki, har ikki yo'nalish bir narsaning yo o'ng tomoni, yoki chap tomonini tadqiq etishga qaratiladi. O'ng tomoniga e'tibor qaratilganda, chap tomon nazardan chetda qoladi, chap tomonga e'tibor berilganda esa o'ng tomon unutiladi. Natijada bir narsaga ilmiy baho berishda umumiylik-xususiylik, imkoniyat-voqelik, mohiyat - hodisa dialektikasi buziladi.

Shuning uchun yuqoridagi har ikki yo'nalishni birlashtirish, morfemani umumlashma sifatida sistema tarkibida hamda xususiylik, voqelik, hodisa sifatida bevosita nutqiy jarayonda, so'z tarkibida o'rganish uning tabiatini to'g'ri yoritish imkonini beradi. Bu esa morfemik sathda uning birliklari o'rtasidagi invariant-variantlilik munosabatini ochishni taqozo etadi.

Integrativ nuqtai nazardan ikki morfemaning (to'g'rirog'i, ikki morfema variantlarining) sintagmatik munosabati o'zidan yuqoriroq bo'lgan morfologik sath birligini vujudga keltiradi. Bunday talqinga muvofiq leksema morfemalar sirasiga kiritiladi va morfemalar ikki guruhga: leksik morfemalar ( $M_l$ ) va grammatik morfemalar ( $M_g$ )ga bo'linadi.

Leksik morfema bilan grammatik morfemaning sintagmatik munosabati morfemik sathdan bir daraja yuqori bo'lgan morfologik sath birligini paydo qiladi.

Shunday qilib, til ichki tuzilishini sathlarga ajratishning ikki tamoyili leksik sath va uning birligiga ikki xil nuqtai nazardan qaraydi. Til birligiga qarab sath ajratish tamoyiliga ko'ra morfemik sathdan so'ng leksik sath alohida ajratiladi va uning birligi **leksema** hisoblanadi.

Integratsiya tamoyiliga ko'ra sath ajratuvchilar leksemani morfemik sath tarkibida leksik morfema sifatida o'rganadilar va uni grammatik morfemaga qarama - qarshi qo'yadilar. Lekin har ikki yo'nalish vakillari tilning alohida birligi lisoniy belgi sifatida leksemani e'tirof etadilar.

Yuqorida til struktur birliklarining integrativ munosabati haqida fikr yuritildi. Bu munosabat tilning barcha sathlari uchun xarakterli bo'lgan universal munosabatdir.

Avvalo, har qanday til birligi bir necha belgilarning simultan (bir vaqtda) munosabatidan iboratdir. Chunki lisoniy belgining biror belgisini shu vaqtning o'zida mavjud bo'lgan boshqa belgisiga nisbatlamasdan yoritib bo'lmaydi. Masalan, bir vaqtning o'zida ikki belgining biri bo'lgan ovozning ishtiroki belgisi, ikki belgining biri bo'lgan portlovchilik-sirg'aluvchilik belgisini tanlamay turib, "konsonantlik" belgisini tanlash mumkin emas. Ko'rinadiki, obyektning belgilari o'zaro bog'liqdir. Tilning eng kichik birligi sanaluvchi fonema o'zaro bir-biri bilan ikki tomonlama bog'liq bo'lgan belgilar yig'indisi sifatida ifoda planiga mansub paradigmakaning minimal a'zosi sanaladi.<sup>1</sup>

Fonemadan so'ng keladigan ohang birligi urg'u sintagmatikaning minimal birligi sanaladi. Uning ichki elementlari esa fonema ichki elementlaridan farqli ravishda **bir tomonlama bog'liqlik** xususiyatiga ega. Bo'g'inning majburiy, konstitutiv elementi **unli** fonema, fakul'tativ elementi esa undosh fonemadir.

Xuddi shunday ierarxik bog'liqlik keyingi sath birliklarida ham davom etadi. Xususan, fonetik so'z bir necha urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning sintagmatik munosabatidan tashkil topadi va unda urg'uli bo'g'in markaziy (majburiy), konstitutiv; urg'usiz bo'g'inlar esa chegara (marginal) elementlar sanaladi.

Yuqorida keltirilgan misollarning barchasi shakl planiga oiddir. Xuddi shunday integrativ munosabat lisoniy birliklarning mazmun tomoniga ham mansubdir. Mazmun planining minimal elementlari xuddi fonemaning minimal elementlari kabi o'zaro ikki tomonlama bog'liqlik munosabatiga ega. Masalan, mazmun planining "substantivlik", "keli-shiklik", "son", "fe'llik", "zamon" singari minimal elementlarini e'tiborga olsak, ularning o'rtasida ham o'zaro bog'liqlik munosabati mavjud: "substantivlik", "kelishiklik" ma'nolaridan bittasini, "son" ma'nolaridan bittasini taqozo etadi. "Fe'llik" esa "zamon" ma'nolaridan birini, "shaxs" ma'nolaridan birini talab etadi.

Integratsiyaning keyingi bosqichida esa qator elementlar ma'no-larining bir vaqtdagi (simultan) yig'indisi sifatidagi birlikni belgilashdan iboratdir. Elementar grammatik ma'nolar yig'indisi shu shaklning umumiy grammatik ma'nosi

---

<sup>1</sup> Общее языкознание. Внутренняя структура языка. М.:Наука,1972. -С. 105.

hisoblanadi. Bunday umumiy grammatik ma'no ayrim adabiyotlarda **grammema** atamasi bilan yuritiladi.<sup>1</sup>

SHuni ta'kidlash joizki, umumiy grammatik ma'noni (UGM) tarkibidagi xususiy grammatik ma'nolarning (XGM) oddiy yig'indisi deb tushunmaslik kerak. UGM ham muayyan elementlarning (XGMLarning) o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik ekan, har qanday butunlik sistema sifatida tarkibidagi elementlarning oddiy yig'indisidan iborat emasligini unutmash lozim. Bir butunlik tarkibidagi Xuddi shuningdek, leksik ma'no ham kichik mazmuniy element-larning o'zaro integrativ munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi. Ana shu elementlarda mavjud bo'lmagan yangi sifatga ega bo'ladi.<sup>2</sup>

butunlikka leksema, leksemaning mazmuniy element-lariga sema, semalar yig'indisiga esa semema atamalari qo'llaniladi.

Leksik va grammatik ma'nolar integratsiyasidan (leksema va grammema munosabatidan) undan yuqoriroq sath birligi vujudga keladi. Bu birlikni ayrim mualliflar "onomatema" atamasi bilan nomlashni taklif etadilar.<sup>3</sup> Onomatemalar yi/indisini esa tilning alohida sathi – onomatologik sath sifatida ajratadilar. Onomatema, odatda, so'z ifodalanmishiga, aniqrog'i, "minimal avtonom sintagma" ifodalan-mishiga muvofiq keladigan nominativ birlik hisoblanadi.<sup>4</sup>

Nominativ birliklarda ko'pincha grammatik ma'no leksik ma'nolarsiz, leksik ma'no esa grammatik ma'nolarsiz mavjud bo'lmaydi. SHunga muvofiq, onomatemalar komponentlari o'zaro tobe munosabatda bo'ladi degan xulosaga kelish mumkin. SHu ma'noda onomatema paradigmaticaning minimal birligi sifatida e'tirof etiladi. L.Prieto tomonidan qo'llanilgan **nomema** atamasi xuddi shu ma'noni bildiradi. Lekin shunday birliklar borki, ular leksik ma'noga ega emas,

---

<sup>1</sup> Булыгина Т.В. О некоторых аналогиях в соотношении семантических и звуковых единиц. // Вопр.язук., - №5. 1976; Хаймович Б.С. О единицах грамматической сферы. //Вопр.язук., -№6, 1968.

<sup>2</sup> Нурмонов А.Н. Гап хақида синтактик назариялар. –Тошкент: Фан, 1988. –Б.15; яна қаранг: Бенвенист Э. Общая лингвистика. -М.: Прогресс, 1974; Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатхлараро муносабатлар. Филол.фан.докт.... диссерт. -Тошкент, 2002. -33-б.

<sup>3</sup> Қаранг: Общее языкознание. Внутренняя структура языка. -С.106.

<sup>4</sup> Мартине А. Основы общей лингвистики. Новое в лингвистике. Вып. III. -М.: Иностран.литер.,1963. –С.366-566.



grammatik ma'nolar yig'indisi deb qaraladi.<sup>1</sup> Olmoshlar shunday birliklar qatoriga kiritiladi va nomlovchilar emas, ishora qiluvchilar sifatida baholanadi.

Shuni e'tiborga olgan holda, onomatema qismlari (komponentlari) o'zaro ikki tomonlama tobe munosabatda emas, balki bir tomonlama tobe munosabatda ekanligi qayd etiladi. Bunday grammatik ma'no markaziy, leksik ma'no esa chegara (marginal) ma'no sifatida talqin etiladi.

SHunday qilib, sema, semema, grammema, onomatema, predikativlik (gap mazmunining konstitutiv elementi) singari atamalar lisoniy birliklarning ma'no tomondan bo'linuvchi uzvlari va turli darajadagi integratsiyasini ifodalovchi atamalar bo'lsa, fonema, bo'g'in singari atamalar esa lisoniy birliklarning shakl tomonidan bo'linuvchi uzvlari va turli darajadagi integratsiyasini ko'rsatuvchi atamalardir.

Bulardan tashqari, belgilar sathiga oid strukturalarga ajratish ham mavjud. Bu sathda ham murakkablik darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan birliklarni ajratish va shunga muvofiq ravishda turli darajadagi integratsiya sathiga bo'lish mumkin bo'ladi. Bunga ko'ra belgilar ikkiga bo'linadi: 1) nomlovchi belgilar; 2) axborot beruvchi nomlar. Ikkinchi tipdagi belgilarning konstruktiv birliklari sifatida Ham birinchi tipdagi belgilar yotadi.

Nominativ belgilar ham sistemaviylik xususiyatini aks ettirib, o'zining ichki tuzilish birliklariga ega bo'ladi. Deyarli barcha tillarda o'zaro konstituentlik munosabatida bo'lgan quyidagi asosiy belgilar ajratiladi: **morfema, so'z, gap.**

Bu birliklar o'zining "cho'ziqlik" belgisi bilangina emas, balki ularning tarkibiy qismlari summasidan kelib chiqmaydigan o'ziga xos vazifasi bilan bir-biridan farq qiladi.

Xususan, morfema – eng kichik, boshqa mayda ma'noli qismlarga bo'linmaydigan ma'noli birlik. Keyingi sath birligi hisoblangan so'z har qanday morfemalarning qo'shiluvidan emas, balki ma'lum bir tilning morfotaktika hodisasiga amal hilgan qo'shiluvidan hosil bo'ladi. O'zbek tilida leksik morfema +

---

<sup>1</sup> Каранг: Общее языкознание. Внутренняя структура языка. –М:Наука, 1972. -С.106.

grammatik morfema ( $M_l + M_g$ ) modelidagi morfemalar munosabati so'zni vujudga keltiradi.

Turli lisoniy belgilar o'rtasidagi munosabat doimo konstituentlik tushunchasi asosida izohlanavermaydi. Bu belgi barcha lisoniy belgilar o'rtasidagi darajali munosabatni qamrab ololmaydi. Masalan, ayrim adabiyotlarda morfemadan yuqori turuvchi birlik sifatida **leksema** e'tirof etiladi. Lekin leksema ikki va undan ortiq morfemalar munosabatidan tashkil topadi, degan xulosa chiqarish mumkin emas. Leksema bu bir leksik ma'noga ega bo'lgan so'z shakllar sinfi sifatida baholanadi. Boshqacha aytganda, leksema bevosita kuzatishda bir necha variantlar orqali namoyon bo'ladigan eng kichik nominativ birlikdir.

Bir sathga mansub birliklar ko'pincha ikki xil atama bilan nomlanadi va bu atamalar mazmun yoki shaklga nisbatan diqqatning qaratilishi bilan farqlanadi. Masalan, **morfema** va **nomema** atamalaridan ko'pincha birinchisi shaklga, ikkinchisi esa mazmunga yo'naltiriladi.

Bu nuqtai nazardan tilshunoslik bo'limlari ham farqlanadi. Xususan, leksikologiyada ko'proq e'tibor ma'noga qaratiladi va uning o'rganish obyekti qanday ifodalanishidan, ya'ni so'z yoki barqaror so'z birikmalari bilan ifodalanishidan qat'iy nazar, ular orqali ifodalangan umumiy ma'no **onomatemalar** hisoblanadi.

Bundan ko'rinadiki, leksikologiyaning o'rganish obyekti turli shakliy variantlar yordami bilan ifodalangan onomatemalardir.

SHuni ta'kidlash joizki, ikki tomonlama mohiyatga ega bo'lgan lisoniy birliklarda shakl va mazmun o'rtasida ko'pincha nomuvofiqlik mavjud bo'ladi. Tovush birliklari chegarasi bilan mazmuniy birliklar chegarasi o'rtasida muvofiqlik bo'lmaydi.<sup>1</sup> Bunday hollarda nomuvo-fiqlik ikki turli bo'ladi.

Birinchidan, ma'no tomondan umumiy bo'lgan birlik shakl tomondan farqlanishi mumkin. Masalan, **bog'ni** va **boqqa** so'zlaridagi **bog'** va **boq** morfemasi garchi mazmun tomondan umumiy bo'lsa ham, lekin tovush tarkibi jihatidan o'zaro farq qiladi. SHuning uchun ham **bog'** va **boq** segmentlari bir

---

<sup>1</sup> Каранг: Общее языкознание. Внутренняя структура языка. М.: Наука, 1972.-С.94.

umumiy ma'no asosida birlashib, bir morfemaning ikki varianti hisoblanadi. Bunday variantlar shakliy farqlanishga ega bo'lganligi uchun morfemaning shakliy variantlari (LSHV) sanaladi.

Ikkinchidan, shakl tomondan umumiy bo'lgan birlik turli mazmuniy elementlarni o'zida birlashtirishi mumkin. Masalan, **mening o'g'illarim** birikmasida **o'g'il** segmentidagi tovushlar ketma-ketligi “erkak jinsiga mansub, quyiga yo'nalgan to'g'ridan-to'g'ri qarindosh” semantik komponentlaridan tashkil topgan bo'lsa, **vatan o'g'illari** birikmasidagi **o'g'il** segmenti mazmun planiga ko'ra boshqa semantik birliklar yig'indisidan tashkil topgan. Mazmun jihatdan bu ikki “nusxa” (“ekzemplar”): o'g'il va o'g'il bir leksik morfemaning ikki mazmuniy ko'rinishi, bir morfemaning mazmuniy variantlari – MMV sanaladi.

Mashhur frantsuz tilshunosi E.Benvenist tilning ichki tuzilishini bir necha sathlarga ajratar ekan, sathlarga ajratishning asosiy tamoyili sifatida til birliklariga tayanadi. qanday til birliklari e'tirof etilsa, shu til birliklarining majmuasi sifatida lingvistik sathgi ham ajratadi.

Ana shu asosda ko'pchilik tomonidan tilning eng kichik birligi sifatida e'tirof etilgan fonema, o'z navbatida, muayyan elementlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan sistema – butunlik deb qaraladi. Fonemani tashkil etgan ana shu birliklar sifatida farqlovchi belgilar qaraladi. Modomiki, farqlovchi belgilar bilan fonema o'rtasida jins-tur, butun va bo'lak munosabati mavjud ekan, farqlovchi belgilarning yig'indisi til tuzilishining alohida sathini tashkil etishi va u fonologik sathdan quyidagi sath bo'lishi ta'kidlanadi. Bu sath merizmatik sath deb yuritiladi.<sup>1</sup>

Xuddi shunday holat leksik sath birliklarida ham uchraydi. Xususan, har bir leksema butunlik, umumlashma sifatida bevosita kuzatishda ikki va undan ortiq leksik-semantik variantlar orqali namoyon bo'ladi. SHuning uchun ayrim mualliflar leksemaning leksik-semantik variantlarini – LSVlarni alohida sath –

---

<sup>1</sup> Бенвенист Э. Общая лингвистика

semasiologik sathning asosiy va chegara birliklari sifatida e'tirof etadilar. LSVlarning majmuasi leksik-semantik sath – LSS deb ham tan olinadi.<sup>1</sup>

Bunday vaqtda har qanday leksema shakliy va mazmuniy (semik) variantlar umumlashmasi sifatida uning bevosita nutqiy jarayonda gavdalanishini e'tiborga olgan holda, leksik sathdan quyi sath sifatida leksik-mazmuniy sath – LMS va leksik-shakliy sath – LSHSlarga ajratish lozim bo'ladi. U holda birinchi sathning asosiy va chegara birliklari LMVlar, ikkinchisidiki esa LSHVlar deb qaraladi.

---

<sup>1</sup> Уфимцева А.А. К разграничению лексического и лексико-семантического уровня. // Иностранные языки в школе. -№2, 1968; Звегинцев В.А. Семасиологический уровень языка. -“Studii si cercetari lingvistice”, 1960,XI.

### III BOB. SINTAKTIK SATH BIRLIKLARINI MODELLASHTIRISH MUAMMOLARI

#### 3.1. Sintaktik birliklarni modellashtirish

Sintaktik sathning asosiy birligi gapdir. Lekin ayrim tilshunoslar til va nutq birliklari munosabatini ko'rsatar ekan, so'z va gapning til birligi emas, balki nutq birligi ekanligini ta'kidlaydilar.<sup>1</sup>

Til sistemasining elementlari o'ziga yaqin turgan yuqori sath birliklari tarkibida funksiyalashadi. Shuning uchun ma'lum sath birligining mohiyati haqida ma'lumot olish uchun bu birlikning yuqori sathdagi funksiyasini o'rganishga ham e'tibor berish kerak bo'ladi. Mana shu nuqtai nazardan yondashganda, sintaktik sath til sistemasini yuqori sathi sifatida o'z ichida barcha birliklarning funksiyasini jamlaydi. Gap va uning qismlarida til birliklarining barchasi jamlangan bo'ladi.<sup>2</sup>

O'zbek tilshunosligida ham sintaktik birliklarni til va nutq dixotomiyasi orqali yoritish bir qator olimlarning tadqiqotlarida uchraydi. Sintaktik birliklarni modellashtirish muammosini dastlab A.Nurmonovning 1982 yilda e'lon qilingan monografiyasida kuzatamiz.<sup>3</sup>

Bu masala yuzasidan prof. SH.Rahmatullaevning fikri ham diqqatga sazovordir. U til birliklari haqida fikr yuritar ekan, ularni birlamchi til birliklari va ikkilamchi til birliklariga ajratadi. Birlamchi til birliklariga **fonema, morfema, leksemalarni**, ikkilamchi til birliklariga esa **leksemashakl, birikmashakl** va **gapshakllarni** kiritadi. Ikkilamchi til birliklarining qurilma ekanligini ta'kidlagan holda, ularni supersegment birliklar deb hisoblaydi.

Ikkilamchi til birliklariga leksemashaklni tuzish modeli, birikmashaklni tuzish modeli va gapshaklni tuzish modellari kirishi ta'kidlanadi.

Uning fikricha, birikmashakl – supersegment birlik. Miyaning til xotirasi markazida birikmashakl modellarining ramzi mavjud. Ana shu modellar leksemashakl va leksema bilan to'ldirilib, nutqiy birlik holatiga o'tadi.

<sup>1</sup> Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. -Тошкент: Ўқитувчи, 1993. –Б.8.

<sup>2</sup> Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. -М.: Наука, 1971. -С.210-211.

<sup>3</sup> Нурмонов А. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. -Ташкент: Фан, 1982.

Shuningdek, gapshakl ham supersegment birlik hisoblanadi. Miyaning til xotirasi markazida gapshaklning modellari ramz sifatida mavjud. Ana shu modellar leksemashakllar bilan to'ldirilib, nutqiy birlik holatiga o'tadi.<sup>1</sup>

Sh. Rahmatullaevning sintaktik birliklarning bu ikki holati haqidagi fikrlariga qo'shilish bilan birga, modellarni supersegment birlik degan fikriga o'zimizning e'tirozimizni bildiramiz. Chunki **supersegment birliklar** deb, odatda, segment birliklar ustiga qo'yiladigan ohang, pauza, urg'u kabi birliklar tushuniladi.

Muallif bu o'rinda segment birliklarni mavhumlashtirish asosida hosil qilingan birliklar haqida – abstrakt birliklar haqida fikr yuritar ekan, ularni abstrakt birliklar sifatida talqin etish o'rinliroq bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, sintaktik sathda til va nutq dixotomiyasi haqida fikr yuritilganda, model va modellashtirish masalasi markaziy o'rinni egallaydi.

L.F.Losevning fikriga ko'ra, model obyektning nazariy talqinining cho'qqisi hisoblanadi.<sup>2</sup> SHuning uchun ham lingvistik birliklarni modellashtirish masalasi nazariy tilshunoslik uchun katta ahamiyatga ega.

Har qanday lingvistik tadqiqot o'rganilayotgan obyektни abstrakt konstrukt, model darajasiga ko'targandagina tugallik va butunlik kasb etadi.<sup>3</sup> Ye.F.Kirov tashqi til va intellektual faoliyat o'rtasidagi oraliq bo'g'inga xos xilma-xil birliklarni **kognitema** atamasi ostida birlashtirishni tavsiya etadi.

Tilning fonologik, morfemik, leksik, morfologik sathlari birliklaridagi invariant-variant munosabati sintaktik sathga ham daxldordir.

Sintaktik sathda invariant sintaktik birliklarni ifodalash uchun sintaksema (Muxin), kognitema (E.F.Kirov), struktur sxema, model, qolip atamalaridan foydalaniladi.

O'zbek tilshunosligida sintaktik sathda invariant-variantlilik munosabati masalasida hali maxsus ilmiy tadqiqot qilingan emas. SHunga qaramasdan, bu masalaga bag'ishlangan ayrim fikrlar uchraydi.

---

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Тил курилишининг асосий бирликлари. -Тошкент: Университет, 2002. -21-22-б.

<sup>2</sup> Лосев Л.Ф. Знак, символ, миф. -М., 1982. -С. 18

<sup>3</sup> Киров Е.Ф. Ўша асар.-С.16

Xususan, V.M.Solntsevning invariant-variant munosabati haqidagi fikri yuzasidan SH.Rahmatullaev quyidagilarni yozadi: “Material birliklarga variant-invariantlilik xos ekanligi, ayni bir til birligi turli variantlarda – real talaffuz birliklari sifatida mavjud bo’lishini, til birliklariga xos invariant-variant holati maxsus terminlar bilan nomlanishini aytadi”.<sup>1</sup>

Sh.Rahmatullaev invariant-variant munosabatini, umuman, rad etmagan holda invariant tushunchasining ortiqcha ekanligini ta’kidlaydi.

U bu haqda shunday deydi: “SHuni ta’kidlash lozimki, mavhum mohiyat deb qaraluvchi invariant tushunchasi ortiqcha: variant bormi, demak, invariant ham bor degan mavhum fikrlash mahsuli xolos.

Asli til birligi sifatida fonema bir ko’rinishli bo’lishi ham mumkin, lekin amalda fonema ko’p variantli bo’ladi, shu variantlardan biri dastlabki, bosh variant, qolganlari esa ikkilamchi variant sifatida qaraladi, har ikki tur variantlar birgalikda fonemani gavdalanitiradi. Demak, til xotirasida fonema odatda variantlar majmui sifatida ramziy ifodaga ega, bulardan tashqari qandaydir mavhum invariant degan ramz yo’q”.<sup>2</sup>

Aslida material birliklarning o’zaro sintagmatik munosabatini o’zida namoyon etuvchi qurilish birliklari ongimizda tuzish modellari, tuzish namunalari sifatida mavjud bo’lishini e’tirof etishning o’zi invariant birlikning mavjudligini tan olishdan boshqa narsa emas.

Shunday qilib, sintaktik sathda sintaktik model va nutqiy jarayonda bu model asosida vujudga kelgan hosilalarning e’tirof etilishi invariant-variant tushunchalarining uzviy aloqadorlikda mavjud bo’lishini taqozo etadi.

Sintaktik birliklarning invariant-variant munosabatini e’tirof etuvchilar bu tushunchalarni sintaktik model va uning nutqiy jarayonda real sintaktik qurilmalar sifatida gavdalanishi o’rtasidagi munosabat orqali izohlashga harakat qiladilar. SHuning uchun ham hozirgi sintaktik nazariyada bu masala yuzasidan ikkita muhim muammo ko’ndalang bo’ladi. Birinchi muammo, real sintaktik

---

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Тил курилишининг асосий birliklari.-Тошкент: Университет, 2002. -9-б.

<sup>2</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўша асар, ўша бет.

birliklarning sintaktik modellarini belgilash bo'lsa, ikkinchi muammo qaysi tamoyil asosida real sintaktik birliklarning invariantini belgilash.



### 3.2. Sintaktik model va transformatsiya

Til va nutq hodisalari umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, invariant-variantlilik tushunchalari bilan uzviy bog'lanadi. Umumiylik va xususiylik dialektikasi to'g'risida gapirganda, Gegelning bir iborasini eslash o'rinlidir. Biz gilos, olma, o'rikni yeymiz, hech qachon mevani yeya olmaymiz. Yoki V.M.Solntsev ta'kidlaganidek, yilqi ichidagi qaysi otni boshqa otga nisbatan invariant deb hisoblash mumkin. Tabiiyki, hech qaysisini, faqat ularning bittasini «namuna» deb e'tirof etish mumkin.<sup>1</sup>

Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bir sinfga mansub bo'lgan moddiy birliklarning hech qaysi biri oila shunday moddiy birlikka nisbatan invariant bo'la olmaydi. Har qaysi moddiy birlik bir sinf (paradigma) doirasida boshqa moddiy birlikka nisbatan variant sanaladi. Oila shu ma'noda invariant-variant gomogen bo'lmagan ob'ektdir. Konkret otlar uchun invariant kandaydir mavhum ot - umuman otdir. U moddiy birliklari qatorida turmaydi. Bunday ot aqliy predmetlardir. Uni boqish, minish mumkin emas. Lekin u har bir alohida otda umumiylik va xususiylik dialektikasini namoyon etgan holda umumiylikning belgisi sifatida mavjud bo'ladi. Fonologik sathda umumiylik va xususiylik dialektikasi fonema va uning variantlari (ottenkalari) orqali namoyon bo'ladi.<sup>2</sup>

L.Shcherba fonema va uning ottenkalarini bir-biridan farqlar ekan: «Fonema konkret vaziyatda ottenkalar sifatida namoyon bo'ladigan umumlashmadir», - deydi. Uning fikricha, umumiyning (fonemaning) talaffuz qilingan real ko'rinishi ottenkalardir. Boshqacha aytganda, nutqdagi barcha real talaffuz qilinuvchi tovushlar ottenka hisoblanadi. Fonema va uning ottenkalari o'rtasidagi munosabat ikki bosqich munosabatidir: abstrakt bosqich (fonema), konkret bosqich (ottenka). L.Shcherbaning ta'kidlashicha, fonemaning ottenkalari ichida bittasi Ayrim tilshunoslar invariant va variantlilikni gomogen hodisalar deb hisoblaydilar. Ularning farqlanishi pozitsiya, etalon bilan bo'ladi, deydi. Ularning fikricha, gomogen birliklarning bittasi boshqalari uchun namuna, etalon deb qabul qilinadi. Ana shu namuna yoki etalon invariant,

---

<sup>1</sup> Nurmonov A., Iskandarova Sh. Umumiy tilshunoslik.-Farg'ona, 2008. B. 48

boshqalari variant hisoblanadi. Xususan S.I.Shaumyan tovushlar uchun invariant – bu eksploziv talaffuzga ega bo'lgan va shu belgisi bilan iploziv talaffuz qilinuvchi boshqa xuddi shunday tovushlardan farqlanib turuvchi moddiy substratdir. Chunki moddiy tomondan eksploziv talaffuz mustaqilroq pozitsiyaga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, qiyoslanayotgan ikki tovushdan mustaqil pozitsiyadagi tovush invariant, tobe pozitsiyadagi tovush esa invariant varianti hisoblanadi. Shunday qilib, bir sinfga mansub real predmetlardan bittasi boshqalariga nisbatan namuna, etalon deb qaraladi va shuning uchun ham u invariant sanaladi.

Lekin invariant va variantlar turli sathga mansub tushunchalar ekan, eksploziv talaffuz ham, «namuna» ham invariant bo'la olmaydi. Chunki ular ham muayyan umumiy birlikning bevosita kuzatishda berilgan turli moddiy ko'rinishlaridan bittasi sanaladi.

Morfema – tilning eng kichik bo'laklarga bo'linmaydigan ma'noli qismidir. Morfema invariant sanalib, nutqda turli variantlar orqali moddiylashadi. Morfemani moddiylashtiruvchi variantlar uchun morf, allomorf yoki morfema variantlari atamalaridan foydalaniladi.

Ba'zi mualliflar esa morfemaning ma'no va shakl tomonlarini farqlash maqsadida ma'no tomoni uchun semema, shakl tomoni uchun monema atamalarini tavsiya etadilar.

Masalan, jo'nalish kelishigi morfemasi *-ga, -ka, -ga, -a* kabi variantlari orqali namoyon bo'ladi. Lekin bu moddiy shakllarning hech biri boshqasiga nisbatan invariant bo'la olmaydi.

Leksik sathda invariant leksemdir. Har qanday leksema, bevosita kuzatishda leksik-semantik variantlar holida namoyon bo'ladi. Har qaysi leksik-semantik variant leksemaning barcha shakl (moddiy ko'rinishi) va ma'nolarini (semalarini) emas, balki shakl va ma'nolaridan (semalaridan) bittasini gavdalantiradi.

Ayrim mualliflar ma'noli birliklardan invariant va variantlilik haqida fikr yuritir ekan, bunday birliklarning ikki tomonlama tabiatini (shakl va ma'no

tomonini) hisobga olgan holda, invariant va variantlilik ifoda va ma'no planlari uchun alohida-alohida ko'rilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Bunday fikr o'zbek tilshunosligida SH.Rahmatullaev tomonidan ham bayon qilinadi. Har ikki tomon uchun alohida-alohida atamalarni ham tavsiya qiladi: mazmuniy variant uchun semema, shakliy invariant uchun leksema. SHunday ekan, variantlarni ham ma'no va shakl jihatidan farqlash kerak bo'ladi.

Leksemani mazmuniy variantlari uchun tilshunoslikda LSV qo'llanilar ekan, leksemaning *obod-ovot* tipidagi shakliy variantlari uchun leksik-shakliy variant atamasini qo'llash ma'qul ko'rinadi.

E.D.Golovina ham so'z va uning variantlari haqida bahs yuritir ekan, so'z variantlarini dastlab mazmuniy va shakliy variantlarga ajratadi. SHakliy variantlarni esa grammatik va grammatik bo'lmagan variantlarga bo'ladi. Grammatik variantlarni aktsent variantlar (*tvorog-tvorog*), fonetik variantlar (*xalif-xalif*)ga ajratadi.

Leksik variantlilik bir leksemaning turli moddiy ko'rinishlaridir. Variantlilikni fonologik sathda chuqur o'rgangan Praga lingvistik maktabining vakillari uni majburiy, fakulativ va individual variantlarga ajratgan edilar. Xususan, muayyan leksemaning hududiy farqlanishi fakulativ (*pichan-bichan, o'xshamok-o'shxamok*), so'zlovchining individual varianti sanaladi. Majburiy variant, o'z navbatida, pozitsion, kombinator va uslubiy variantlarga bo'linadi. Lisoniy birliklarning pozitsion varianti uning qanday pozitsiyada (kuchli yo kuchsiz pozitsiyada) joylashishiga ko'ra vujudga keladi. Kombinator variantlar esa lisoniy birliklarning sintagmatik munosabatida namoyon bo'ladi. Uslubiy variantlar lisoniy birliklarning uslublararo farqlanishi asosida paydo bo'ladi. Masalan, *kabutar* – badiiy uslub uchun xoslangan variant bo'lsa, *kaptar* – so'zlashuv uslubiga mansub variantdir. Qayerda variantlar soni ko'p bo'lsa, shu yerda, albatta, me'yor tushunchasiga ehtiyoj tug'iladi. Me'yor tushunchasi invariant – variant zidlanishi uchun emas, balki variantlar zidlanishi uchun xosdir. Muayyan invariantning turli variantlari ichida bittasi ma'lum sababga ko'ra boshqalariga nisbatan namuna sifatida qabul qilinadi. Mashhur tilshunos

V.I.Degtarev gap tuzilishini til va nutq planida izohlar ekan, uni konstruktiv – til va kommunikativ – nutqiy tuzilishlarga ajratadi. Birinchi tuzilish tilga, ikkinchi tuzilish esa nutqqa xos ekanligini ta’kidlaydi.<sup>1</sup>

Gap tuzilishining bunday ikki turga bo’linishi uni o’rganadigan tilshunoslik bo’limini ham ikki turga ajratishga imkoniyat yaratdi. Kommunikativ va konstruktiv (struktur) sintaksis bir-biridan farqlandi. Sintaksisni bunday ikki guruhga ajratish gap tuzilishining til va nutq dixotomiyasiga munosabati asosida yoritishga qulaylik tug’dirdi.

Konstruktiv-sintaktik tuzilish nutqiy kommunikativ tuzilish bilan uzviy bog’liqdir. SHu bilan birga, ular farqli belgilarga ham ega.


Konstruktiv-sintaktik sathda turli xil mazmuniy va leksik tarkibga ega bo’lgan nutqiy akt model deb nomlanuvchi gapning invariant tiplariga umumlashtiriladi. Gap modeli turli xil konkret nutqiy aktning abstraktlashtirilgan umumlashmasi, u yoki bu struktur tipning namunasidir. M.Greplning ta’kidlashicha, model tadqiqotchining sun’iy ravishda yaratgan “qurilmasi” emas, balki til sistemasining sintaktik sathidagi real nutqiy birlikka singgan obyektiv mavjudlikdir.<sup>2</sup> Model inson ongida, til xotirasida imkoniyat tarzida mavjud bo’ladi. Til birligi sifatida sintaktik sathda ko’pchilik tilshunoslar tomonidan sintaktik modellar (struktur sxemalar) invariant deb e’tirof etiladi. Bu sintaktik modellarning nutqiy zanjirda konkret leksik birliklar bilan to’ldirilishi esa shu sintaktik invariantning (modelning) variantlari sanaladi. Garchi sintaktik sathda sintaktik modellar invariant, uning konkret nutqiy jarayonda namoyon bo’lishi (manifestatsiyasi yoki reprezentatsiyasi) variantlar ekanligi ko’pchilik tomonidan e’tirof etilgan bo’lsa ham, lekin sintaktik modellarning mohiyati, uni hosil qilish yo’llari yuzasidan xilma-xil fikrlar mavjuddir. Tilning sintaktik sathida invariant – variantlilik munosabati yuzasidan Ye.I.SHutovaning bildirgan fikricha, sintaktik modelning turli xil real ko’rinishlari uchun umumiy bo’lgan namunaviy ma’nosi invariant hisoblanadi. Bu invariantning nutqiy jarayondagi xilma-xil ko’rinishlari

---

<sup>1</sup> Дегтарев В.И. Основы общей грамматики. – Изд. Ростовского университета, 1973. -С. 216-217.

<sup>2</sup> Грель М. К сущности типов предложений в славянских языках. // Впр.языкознания.1967,-№ 5. - С.60

esa variant sanaladi.<sup>1</sup>Muallif namunaviy sintaktik ma'noni sintaktik invariant hisoblangan holda, bu invariant quyidagi variantlar asosida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi:leksik-semantik variantlar;leksik-morfologik variantlar;morfologik variantlar;kompozitsion variantlar.Shakliy-sintaktik invariantning leksik-semantik varianti – bu sintaktik modelning konkret leksik birliklar bilan to'ldirilishi asosidagi farqlanuvchi invariant sintaktik ma'noning turi sanaladi.<sup>2</sup>Shakliy-sintaktik variantning leksik-morfologik varianti – sintaktik modelning u yoki bu a'zosining (komponentining) kategorial mansubligi asosida farqlanuvchi invariant sintaktik ma'noning turi. Shakliy-sintaktik invariantning morfologik varianti sifatida invariant sintaktik ma'noning sintaktik model tarkibidagi u yoki bu komponentning morfologik shakliga ko'ra farqlanishi asosida kelib chiqqan turlari e'tirof etiladi.Shakliy-sintaktik invariantning kompozitsion varianti sifatida esa sintaktik modelning u yoki bu komponenti qurilishining farqlanishi asosida yuzaga chiqadigan invariant sintaktik ma'noning turi qaraladi. Kompozitsion variantga predikativ strukturaning to'ldiruvchilar bilan kengayishi mansub ekanligi ta'kidlanadi. E.I.Shutova taklif etgan sintaktik invariant-variant zidlanishida ham oraliq holatga yo'l qo'yiladi.Zidlanishning chap qutbi substantsiya sanaluvchi sintaktik modellarni, o'ng qutbi esa bevosita nutqiy jarayonda xilma-xil ko'rinishda namoyon bo'luvchi variantlarni o'z ichiga olsa, bu ikki qutbiy a'zolar o'rtasida ularni tutashtirib turuvchi alohidalik xarakteridagi variantlar tipi mavjud bo'ladi. Uni quyidagicha ifodalash mumkin:



<sup>1</sup> Шутова Е.И. Вопросы теории синтаксиса. -М.: Наука, 1984. -С. 107

<sup>2</sup> Шутова Е.И. Ўша асар. -С. 108.

Shuni ta'kidlash kerakki, lingvistik model lingvistik tushunchalarga tayanib emas, balki bevosita lingvistik obyektga tayanib, uning boshqa shunga o'xshash obyektlar bilan munosabati asosida ikkinchi darajali belgilarini chetlashtirish yo'li bilan hosil qilinadi.

Obyektning ikkinchi darajali belgilaridan soqit qilish va xuddi shunga o'xshash obyektlarga munosabati orqali hosil qilingan muhim belgilar yig'indisi bo'lgan abstrakt qurilmalar ayrim mualliflar tomonidan kognitema atamasi bilan nomlanadi.<sup>1</sup>

Abstrakt qurilmalar kognitema deb hisoblanar ekan, demak, u modelga tenglashtiriladi.

E.F.Kirov ham lingvistik obyektlarni modellashtirishning uch bosqichini rad etmagan holda lingvistik modelning ikki bosqichini ajratadi: a) umumiy sintetik model; b) asosiy til birliklarining analitik modellari.

Sintetik model lingvistik modellarning yuqori shakli, oliy darajadagi abstraksiyasi sanalib, analitik modellar asosida hosil qilinadi.<sup>2</sup>

Tilda nimani modellashtirish lozim va muayyan bir til matnini tahlil qilish asosida qanday lingvistik modellarni hosil qilish mumkin, degan masala ham tilshunoslik uchun muhimdir.

E.F.Kirovning ta'kidlashicha, tilning barcha sathlarining pog'onali tuzilishini gavdalantiruvchi umumiy sintetik modellarni belgilash nazariy lingvistika uchun katta ahamiyatga ega.

R.Sayfullaeva va M.Qurbonovalar o'zbek tili sintaktik birliklarini modellashtirish muammolari haqida fikr yuritar ekanlar, ular ham modellashtirishning ko'p bosqichliligini e'tirof etadilar: a) gapning yuza qurilish

---

<sup>1</sup> Киров Е.Ф. Теоритические проблемы моделирования языка. Изд. КазГУ, 1989. -С. 17

<sup>2</sup> Киров Е.Ф. Ўша асар. -С. 12

qolipi; b) gapning ichki qurilish qolipi; v) gapning mohiyatiy (zotiy) – lisoniy qolipi.<sup>1</sup>

Bulardan birinchisi nutqiy hosilalarning umumlashmasi sifatida hosil qilingan grafik model, ikkinchisi esa gapning ichki uzvlarning sintaktik funktsiyalari asosida hosil qilingan ichki qurilish modeli bo'lib, har ikkisi ham nutqiy hosilalarga nisbatan ikkilamchi ekanligi ko'rsatiladi. Gapning zotiy-lisoniy qolipi haqida mualliflar quyidagilarni bayon qiladilar: har qanday lisoniy birlik lisonning o'zi singari yuksak darajadagi umumiylik bo'lishi kerak. U nutqiy hosilalarni umumlashtirish usuli asosida emas, balki lisoniy bosqichda lisoniy birliklar orasidagi paradigmatic munosabatlar va bo'lak-butun aloqalari asosida yechilishi lozim.<sup>2</sup>

Mualliflar lingvistik qoliplashtirish jarayonida qoliplashtirish bosqichlarini va bu bosqichlarda hosil qilinadigan qoliplarning turlarini to'g'ri belgilay olish kerakligini ta'kidlaydilar va qoliplashtirishning 1- va 2- bosqichlaridagi nutqiy qoliplar bir-biridan keskin farq qilishini bayon qiladilar.<sup>3</sup>

Darhaqiqat, fan, ilmiy bilish - hodisalardan mohiyatga qarab yo'naladi, mohiyat cheksiz bosqichlarga ega. Demak, bizning bilimimiz doimo bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish orqali rivojlanadi.<sup>4</sup>

Sintaktik birliklarning sistemaviy tadqiqi uchun bevosita sezgi a'zolarimizga berilgan real sintaktik hodisalarni abstrakt konstrukt darajasiga ko'tarish, real sintaktik birliklar zahirida yashiringan mohiyatni, konstantani belgilash muhim ahamiyatga egadir.

Ishimizning kirish qismida ta'kidlanganidek, obyektning sistemaviy o'rganishning uch bosqichi mavjuddir: 1) elementlarning ma'lum yig'indisi sifatida; 2) bu elementlar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum yig'indisi sifatida; 3) elementlar

---

<sup>1</sup> Сайфуллаева Р., Курбонова М. Қолиплаштириш усули ва унинг тилшуносликда қўлланилиши. – Тилшунослик ва адабиётшунослик масалалари. Проф. А.Нурмонов таваллудининг 60 йиллигига бағишланган илмий анжуман мат. Андижон, 2002. -27-б.

<sup>2</sup> Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўша асар. –Б.28.

<sup>3</sup> Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўша асар. –Б.29.

<sup>4</sup> Кедров Б. Беседы о диалектике. -М.: Молодая гвардия, 1989. -С. 84

va munosabatlarning ma'lum substantsiya tarkibida muvofiqlashgan yig'indisi sifatida.

Ana shunga muvofiq sistemaviy-struktur tadqiqotning ham uch bosqichi mavjud: a) uzviy; b) struktur; v) sistemaviy.

Bu uch bosqich insonning olamni bilish jarayonini o'zida namoyon etadi.

Bevosita kuzatishdan, sezgi a'zolarimiz ta'siriga berilgan hissiy bilimlarimiz orqali abstrakt mushohadaga o'tish yo'li induktiv usul sanalsa, umumiydan xususiyga tamoyiliga amal qiluvchi usul deduktiv usul sanaladi.

Real sintaktik birliklarning invariantini belgilashda esa birinchi usul, ya'ni "alohidaliklardan xususiyliklarga", "xususiyliklardan umumiylikka" tamoyili katta ahamiyatga ega.

Invariant tadqiqotchining shaxsiy kuzatish asosida hosil qilingan sub'ektiv hosila emas, balki real nutqiy birliklarda takrorlanish xususiyatiga ega bo'lgan barqaror mohiyatdir.

Til sistemasining yuqori sath birliklari ikki tomonlama mohiyat sanalganligi tufayli bu sathning invariantini, xususan, sintaktik sath birliklarining invariantini belgilash ham birmuncha qiyinchilik tug'diradi.

Jumladan, sintaktik birliklarning invarianti hisoblanuvchi sintaktik modellar sintaktik birliklarning faqat shakli asosida hosil qilinadimi yoki mazmuniy tuzilishi asosida hosil qilinadimi, degan masala ko'ndalang bo'lib qoladi. Ana shu asosda sintaktik modellarni belgilashda tayanch nuqta sifati yo shaklni, yoki mazmunni e'tiborga oluvchi turli yo'nalishlar maydonga keldi.

Lekin sintaktik modelni, ya'ni sintaktik invariantni belgilashda ham tilning barcha sathlarida invariantni belgilashda amal qilinadigan asosiy tamoyil saqlanib qoladi. Ya'ni bevosita kuzatishda berilgan hodisalarning ikkinchi darajali, o'ziga xos belgilarini chetlashtirish orqali sinfga xos bo'lgan muhim belgilarini saqlab qolishdir. Bu tamoyil L.Ельmslevning empirik tamoyilining asosi sanalishi bilan birga, hozirgi struktur tilshunoslikning deyarli barcha yo'nalishlarida ham yetakchilik rolini o'ynaydi.



Sintaktik birliklarning mazmuniy invariantini belgilashda ichki tuzilish tushunchasi muhim ahamiyatga ega. SHu bilan birgalikda, ichki tuzilishning nutqiy jarayonda turlicha variantlarda namoyon bo'lishini ifodalash uchun sintaktik sinonimik qayta shakllanish (sintaksicheskoe inonimicheskoe pereobrazovanie)<sup>1</sup> tushunchasi ham ichki tuzilish tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir.

Gapning mazmuniy invariantini **ichki tuzilish** asosida belgilovchi olimlarning fikricha, har qanday til uchun ichki tuzilishi tilini tuzish va barcha sintaktik birliklarni shu ichki tuzilishdan keltirib chiqarish mumkin.

Har bir faol sintaktik qurilmalar uchun asos vazifasini bajaruvchi va ularning har qaysisida takrorlanuvchi eng kichik mazmuniy birliklar ichki tuzilish hisoblanadi.

Ichki tuzilish minimal sintaktik birlikning, ya'ni eng kichik gap uchun zaruriy bo'lgan mazmuniy mundarijani ifodalaydi. U gapning boshqa mazmuniy kengayishidan tashkil topadi.

E.V.Paduchevaning fikricha, ichki tuzilish gapning sintaktik va mazmuniy tuzilishi o'rtasidagi oraliq sathdir.<sup>2</sup>

Ana shu oraliq sath transformatsion lingvistikada turli transformalarning hosil bo'lishi uchun asos vazifasini o'tovchi lingvistik birlik hisoblanadi.

Bir necha real gaplar uchun umumiy bo'lgan **ichki tuzilish** birliklari gap mazmuniy tuzilishi uchun ikkinchi darajali mazmuniy uzvlarni chetlashtirish orqali aniqlanadi. Ana shu yo'l bilan aniqlanadigan ichki tuzilish birliklari real gaplar paradigmasi uchun invariant sanaladi.

Sodda gaplarning mazmuniy invarianti sifatida shu kungacha bo'lgan mazmuniy sintaksisga doir adabiyotlarda ikki xil ichki tuzilish e'tirof etiladi. Ularning birinchisi ikki uzvli tuzilish bo'lib, u subyekt – predikat tuzilishi nomi bilan yuritiladi.

---

<sup>1</sup> Падучева Е.В. О семантике синтаксиса. -Материалы к трансформационной грамматике русского языка. -М.: Наука, 1974. -С. 22

<sup>2</sup> Падучева Е.В. Ўша асар. -С. 22

Sub'ekt-predikat tuzilishini real gaplarning invarianti sifatida qarash, gap struktur sistemasini belgilashda gapning faqat grammatik tugalligini yo'qotishga qadargina emas, balki mazmuniy tugalligini ham yo'qotishga qadar bo'lgan chegara, ikkinchi darajali a'zolari chetlashtirish tamoyiliga amal qiladi. Ayniqsa, bu tamoyil transformatsion ling-vistikaning bosh tamoyili sanaladi.

Chunki turli transformalar uchun asos bo'lgan qismni belgilashga urinish invariant nazariyasining kelib chiqishiga asos bo'ldi.

Har qanday fanda bilish metodi bilan bayon qilish metodi o'zaro dialektik bog'liq bo'lgandagina kutilgan natijalarga erishiladi.

40-50-yillar Amerika tilshunosligi vakillari asosan bilish metodiga tayandilar. Faktlarni aniqlash, tavsiflash bilan chegaralandilar. Ularning sabablarini yoritishni maqsad qilib olmadilar. Shuningdek, bevosita ishtirokchilar (BI) grammatikasi sintaktik sathda tilning eng kichik birligi nima? degan savolga javob bera olmadi. SHuning uchun yangi tadqiqot metodlariga ehtiyoj tug'ildi. Ana shu ehtiyojni qondirish talabi bilan transformatsion metod dunyoga keldi.

N.Xomskiy asos solgan transformatsion metod distributiv metod va BI metodi yo'l qo'ygan kamchiliklarga chek qo'ydi. Bilish metodi bilan bayon qilish metodini o'zida sintezladi. Natijada har qanday tilning sintaktik sistemasi elementar gaplar va ularning transformalari munosabati sifatida izohlandi.

Ularning fikricha, elementar gaplar sintaksisning asosini tashkil etadi va sintaksisning bosh maqsadi ana shu elementar gaplarning yopiq ro'yhatini tuzishdan iborat bo'lmog'i lozim.<sup>1</sup>

Shuning uchun ular yadro a'zolar va shu a'zolar asosida gavdalantirilgan transformalarni ajratadilar. Demak, transformalar yadro gaplarga zidlanadi. Yadro a'zolar har bir transformada turli shaklda takrorlanadi. Ana shu takrorlanuvchanlik belgisi yadroviylik, ya'ni invariantlilikni belgilovchi muhim jihat hisoblanadi.

Ma'lumki, transformatsion lingvistikada transformatsiya modeli tushunchasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uch uzvni o'z ichiga oladi:

1) operand; 2) operator; 3) transform.

---

<sup>1</sup> Структурный синтаксис английского языка. – Изд. ЛГУ, 1972. -С. 13

Demak, har qanday transformasiya ma'lum operator yordamida operanddan hosil qilinadi. Lekin o'sha operand nima degan savolga javob berishda tilshunoslarning o'rtasida bir xillik mavjud emas. Bu xilma-xillik esa tilshunoslarning sintaktik invariantga nisbatan turli xil yondashuvining natijasi sifatida maydonga keladi.

Transformatsiya haqidagi ana shu nazariyaga tayangan ayrim o'zbek tilshunoslari ham predikativ strukturaning transformalar uchun operand vazifasini bajarishini ta'kidlaydilar.<sup>1</sup> Masalan, *Halima o'qidi, Halimaning o'qishi, Halima o'qigach, Halima o'qiganda, Halima o'qisa* singari sintaktik qurilmalar bir paradigma ostida birlashtiriladi. Bosh paradigma a'zosi sifatida *Halima o'qidi* sintaktik qurilmasi qaraladi va boshqa barcha paradigma a'zolari ana shu bosh paradigma a'zosining turli transformalari sifatida qaraladi.

Bu o'rinda, bizning nazarimizda, transformatsiya bilan derivatsiya qorishtirilgandek, bu ikki hodisa o'rtasidagi umumiylik va o'ziga xoslik e'tiborga olinmagandek ko'rinadi.

Transformatsiya transformalarga asos bo'lgan qismning mohiyati o'zgarmagan holda bo'lishidir. Agar mohiyati o'zgarib ketsa, yangi mohiyat kasb etsa, u holda transformatsiya emas, balki derivatsiya vujudga keladi.

Muayyan sintaktik qurilmani ma'lum substantsiyaning transformalari deyish uchun shu transformalarda substantsiya ma'nosining takrorlanishini sezmog'imiz lozim bo'ladi. Chunki barcha transformalar birlashib bir umumiy paradigmani hosil qiladi.

Har bir paradigma a'zosida, ya'ni transformalarda paradigmaga xos umumiy ma'no takrorlanishi lozim bo'ladi.

Shunday qilib, sintaktik birliklarning mazmuniy invarianti umumlashma sanalib, real sintaktik birliklarga xos bo'lgan mazmuniy belgilarni asosiy va ikkinchi darajali belgilarga ajratgan holda, ikkinchi darajali belgilarni soqit qilish asosida hosil qilinadi.

---

<sup>1</sup> Махматқулов С. Ўзбек тилида предикатив синтагманинг трансформацияланиши. Филол.фан.докт....дисс. -Тошкент, 2004. –Б.34.

Asosiy va ikkinchi darajali belgilar esa faqat sintaktik birliklarning o'zaro munosabatida aniqlanadi. Barcha paradigma a'zolari uchun xos, uning har birida takrorlanuvchi belgi asosiy, faqat ayrimlari uchun xos bo'lgan belgi esa ikkinchi darajali, asosiy bo'lmagan, chegara belgilar sanaladi.

Sintaktik birliklarning invariantini aniqlashda ularning shaxsiy tomoni ham muhim ahamiyatga ega.

Sintaktik birliklarning shakliy tomondan invariantini belgilash struktur sintaksisning bosh tamoyili sanaladi.

Xususan, ingliz tilining struktur sintaksisiga bag'ishlangan asarda talaffuz qilingan yoki grafik ifodalangan gaplarni ma'lum umumiy-liklarga birlashtirish hozirgi sintaktik nazariyaning muhim belgisi ekanligi ta'kidlanadi.<sup>1</sup>

Jahon tilshunosligida sintaktik invariantlarni belgilashning ikki bosqichi e'tirof etilgan. Birinchisi – kommunikativ-sintaktik, ikkinchisi esa konstruktiv-sintaktik bosqich.

Real sintaktik birliklarning o'zaro o'xshash tomonlarini e'tiborga olgan holda umumlashtirish, ikkinchi darajali jihatlarni soqit qilish bevosita sezgi a'zolarimiz ta'siriga beriluvchi real gaplarni umumlashtirishning birinchi bosqichidir.

Bu bosqich umumlashtirishning dastlabki bosqichi sanalib, unda gapning eng muhim belgisiga qo'shimcha belgilarni ifodalovchi vositalar ham bo'lishi mumkin. Masalan, *Dalalarda ish boshlanadi* jumlasida *Maktablarda o'qish yakunlandi* singari gaplarning umumiy jihatlari asosida ot o'rin + ot + **Pm.**ot tuzilishi ajratiladi. Bu sintaktik sxema, yoki invariant bir necha shunga o'xshash gaplar uchun andoza rolini o'taydi.

Shu bilan birga bundan boshqa kommunikativ-sintaktik strukturalar ham ko'plab uchrashi mumkin. Masalan, kishilik olmoshi + ot o'rin + **Pm.** Oliy darajadagi abstraksiyalash, kommunikativ-sintaktik tuzilishdan konstruktiv-sintaktik tuzilishni hosil qilish uchun barcha kommunikativ-sintaktik tuzilishlar uchun umumiy belgini ajratish lozim bo'ladi. Buning uchun har bir kommunikativ-

---

<sup>1</sup> Структурный синтаксис английского языка. -Изд. ЛГУ, 1972. -С. 12

sintaktik strukturaning o'ziga xos belgisi chetlashtiriladi. Natijada yuqoridagi kommunikativ-sintaktik tuzilish-larning har birida takrorlanuvchi qism – kesimlik shaklidagi predikat saqlanib qoladi. Ana shu qism har qanday sodda gapni boshqa sintaktik birliklardan farqlab turuvchi muhim belgi sanaladi. Demak sodda gaplarning shakliy invarianti *Pm* sanaladi.

“O'zbek tilining struktural sintaksisi” mualliflari ham real sintaktik birliklardan lisoniy sintaktik qoliplarni aniqlashning ikki bosqichini tavsiya etadilar. Ularning birinchi bosqichida real sintaktik birliklardagi nosintaktik hodisalarni chetlashtirish nazarda tutilsa, ikkinchi bosqichida nosintaktik hodisalar chetlashtirilgan jihatlarni soqit qilish yo'li bilan ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan aynanliklarni ajratish amalga oshiriladi.<sup>1</sup>

Oliy darajadagi umumlashtirish so'nggi bosqich uchun xos bo'lib, tildagi barcha gaplar uchun xos bo'lgan umumiy belgini o'zida namoyon qiladi va u ko'pgina adabiyotlarda *Pm* ishorasi bilan ifodalanadi. Bu belgi predikativlik belgisini o'zida namoyon etgan barcha minimal shakliy sintaktik birliklarning invarianti sanaladi.

Fonologik sathdan boshqa barcha sath birliklari shakl va mazmunning o'zaro dialektik aloqasidan tashkil topadi. SHakl va mazmun o'zaro uzviy aloqadadir. SHakl ma'no va ayni paytda, ma'no shakldir. CHunki shakldan holi bo'lgan yalang'och ma'no va ma'nodan holi bo'lgan quruq shakl mavjud emas.

Shakl va mazmun har bir ma'noli lingvistik birlikda diallektik aloqada. Ularning har ikkisi o'zaro qanchalik zich bog'liq bo'lsa ham, lekin ularning har qaysisi o'ziga xos ichki tuzilishga ega.

Lekin bu ikki tuzilishni bir-biridan ajratgan holda alohida-alohida, bir-birisiz o'rganish ham mumkin emas.

F. de Sossyur ta'biri bilan aytganda, lingvistik belgining ifodalovchisi bilan ifodalanishi go'yo daftar varag'ining ikki tomonidir. Daftar varag'ini

---

<sup>1</sup> Ўша асар. –Б.56.

ko'ndalangiga ikkiga ajratish mumkin bo'lmaganidek, lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmish tomonini ham bir-biridan ajratish mumkin emas.<sup>1</sup>

Real sintaktik birliklar ham xuddi shunday xususiyatga ega. SHuning uchun real sintaktik birliklar zamiridagi invariantni ajratishda uning faqat bir tomoniga tayanish kutilgan natijani bermaydi. SHuning uchun ham invariantni belgilashda lingvistik belgining shakliy va mazmuniy tuzilish birligiga tayanish lozim bo'ladi.

Masalan, *Maktab ochildi*

*Uy qurildi*

*Doira chalindi* gaplarining hammasi bir xil qolipdagi gaplar bo'lsa ham, lekin ularning har birida farqli, o'ziga xos obyektiv mazmun, ya'ni propozitsiya ifodalanadi.

Jumladan, birinchi gapda **obyekt** va **uning faoliyatining** boshlanishi o'rtasidagi munosabat mazmuni, ikkinchisida sub'ekt ta'siriga uchragan **obyekt** va **uning bunyod bo'lishi** o'rtasidagi munosabat, uchinchisida esa sub'ekt ta'siriga uchragan obyekt va **uning hosilasi** o'rtasidagi munosabat ifodalanadi.

Birinchi gapning mazmuniy andozasi **Yo'l ochildi, Issiqlik manbai faoliyat boshladi** kabi yuzlab gaplar uchun umumiylikni hosil qilsa ham, boshqa tipdagi mazmuniy tuzilish uchun xususiy sanaladi.

Shu bilan birga turli propozitiv ma'noga ega bo'lgan xilma-xil mazmuniy tuzilishdagi gaplar uchun mazmuniy umumiylik obyektiv borliqning muayyan bo'lagini nomlashdan iboratdir. Obyektiv borliqning bu bo'lagi, qismi inson ongida aks etadi va muayyan lingvistik vositalar yordamida ifodalanadi. Inson ongida aks etgan obyektiv voqelik propozitsiya hisoblanadi.

Har bir real gap alohida-alohida bir-biridan farq qiladigan propozitsiyalarni ifodalasa ham, lekin ular uchun umumiy jihat propozitsiya ifodalash tomonidir.

Demak, har qanday real gapda obyektiv mazmun mavjud. Ana shu obyektiv mazmuni umumlashtirgan holda ayrim mualliflar **V** ifodasi bilan belgilaydilar. Biz ham propozitiv ma'noni ana shu belgi bilan belgilaymiz.

---

<sup>1</sup> Соссюр Ф. де. Труды по общему языкознанию. -М.: Наука,1977. -С.70.

Shunday holat ham kuzatiladiki, bir propozitsiya xilma-xil shakllarda moddiylashishi mumkin. Masalan, yuqoridagi birinchi gapdan ifodalangan obyektiv mazmun quyidagi sintaktik shakllar orqali ifodalanishi mumkin:

***Maktab ochildi***

***Maktab ochilib***

***Maktab ochilgach***

***Maktab ochilishi bilan***

Bu gaplarni birlashtirib turgan umumiy tomon shuki, ularning hammasi bir pozitsiyani, bitta mazmuniy tuzilishni ifodalaydi. Ular o'rtasidagi farq shu propozitsiyaning qanday ifodalanishidadir.

Yuqoridagi sintaktik paradigmaning birinchi a'zosi boshqa barcha a'zolar bilan predikativ belgining bor-yo'qligiga ko'ra zidlanadi. Birinchi a'zo belgiga ega, kuchli a'zo sanalsa, qolganlari zidlanishning kuchsiz a'zolari sanaladi.

Kuchli a'zoning markeri predikativ shakldir. Ana shu predikativ shakl har qanday nopredikativ shakllarga qo'shilib, ularni gapga aylantiradi. Agar predikativ shaklni **Pm** ifodasi bilan belgilasak, bu ifoda cheksiz gaplar uchun shakliy umumlashtiruvchi belgini o'zida aks ettiradi.

Demak, real gaplarning ham mazmuniy, ham shakliy tomonini e'tiborga olgan holda, ularning hammasida istisnosiz takrorlanadigan umumiy belgi asosida invariantni belgilaydigan bo'lsak, uning eng ixcham ko'rinishi **Prm** dan iborat bo'ladi. Bunda **P** propozitsiyani, **r** predikatni, **m** esa predikativlik shaklini ifodalaydi. Demak, bu struktur sxemaning chap chegarasi sintaktik birliklarning mazmuniy invariantini, o'ng chegarasi shakliy invariantni, har ikki uzv hamkorlikda, bir butunlikda olinganda esa sintaktik birlikning shakliy va mazmuniy invariantni yaxlit holda ifodalaydi.

Bu invariant bevosita kuzatishda cheksiz real gaplar, ya'ni jumlar orqali namoyon bo'ladi. Ana shu real jumlar shu invariantning variantlari sanaladi.

Shu bilan birga, tilimizda atash ma'nosiga ega bo'lmagan, lekin dialogik nutqda oldingi gapning atash ma'nosini tasdiqlash yoki rad etishda qo'llaniladigan hamda nutqiy odatimiz bilan bog'liq bo'lgan gaplar ham mavjud. Masalan, ***ha***,

*yo'q, shaksiz, albatta, so'zsiz, assalomu alaykum, vaalaykum assalom, marhamat, xayr* va boshq.

Tabiiyki, bular yuqorida ko'rsatilgan invariantning variantlari emas. Chunki yuqoridagi invariant tuzilishining birinchi komponenti mavjud emas. Lekin predikativlik sinkret holda ifodalanadi. Predikativlik bunday vaqtda nol ko'rsatkich orqali ifodalanadi. Nol shaklining ham shakl ekanligi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etiladi. Unday vaqtda yuqoridagi so'z-gaplarning invarianti **Pm** modeli teng keladi.

**Pm** modeli bilan **Ppm** modeli kengayish-kengaymaslik belgisiga ko'ra o'zaro privativ zidlanish munosabatida bo'ladi. Biri belgiga ega, kuchli; ikkinchisi esa belgiga ega emas, kuchsiz.

Zidlanishning kuchli a'zosi **Ppm** bo'lib, u doimo fakul'tativ a'zolar bilan kengayishi, yoyiq tusga kirishi mumkin. Yoyiq tusga kiritishning ham o'ziga xos struktur qoliplari mavjud. Demak, **Ppm** real sintaktik birliklar orqali namoyon bo'lgunga qadar oraliq sintaktik qoliplarga yo'l qo'yish mumkin. Bu oraliq sintaktik qoliplarda gap kengaytiruvchilari va so'z kengaytiruvchilarining umumlashgan tiplari o'z ifodasini topishi mumkin. Bu esa **Ppm** invarianti reallashgan variantlarga qadar oraliq invariantlarning mavjud bo'lishiga yo'l qo'yadi.

Ikkinchi tipdagi invariant esa kengayishi belgisiga ega emas, u asosda yuzaga chiqadigan gaplar ham kengaytiruvchilarga ega bo'lmaydi. SHuning uchun oraliq invariantlarga ham yo'l qo'ymaydi.



## UMUMIY XULOSALAR

1. Har qanday lingvistik tadqiqot kuchli darajadagi abstraktsiyaga asoslangandagina chinakam haqiqatga erishadi. Tilshunoslik ham obyektini bevosita kuzatuvga berilmagan fanlar sirasiga kirgani uchun uning obyektini umumlashtirilgan ideal qurilmalar asosida o'rganish til mohiyatini, uning qonuniyatlarini obyektiv baholashga imkon beradi.

2. Obyektni modellashtirish bilishning amaliy bosqichida erishilgan natijalar asosida nazariy bosqichda amalga oshiriladi. Konstruktlar, ya'ni modellar umumlashtirilgan ideal birliklar bo'lib, bir turdagi moddiy va ideal birliklar tipidir. Bu tiplar obyektning nomuhim belgilarini chetlashtirish va muhim belgilari asosida umumlashtirish – abstraktlashtirish natijasida hosil qilinadi.

3. G'arb va sharq falsafasida mavjud bo'lgan umumiylik-xususiylik dialektikasi tilshunoslikka ham ta'sir etdi va bu dialektik munosabat sistemaviy-struktur tilshunoslik vakillari tomonidan til va nutqni bir-biriga zidlashlarida, invariant va variant tushunchalarining olib kirilishida namoyon bo'ldi.

4. Lingvistik birliklarni modellashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o'rtasidagi munosabatlarning barqaror va o'tkinchi (beqaror) turlarining ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun katta ahamiyatga ega.

5. Lingvistik model inson ongida imkoniyat tarzida mavjud bo'lgan konstruktiv sxemadir. U bevosita nutqiy jarayonda konkret leksik birliklar yordamida to'ldiriladi.

6. Kompozitsion kontseptsiyaga muvofiq, tilning ichki tuzilishi bir xil yo'nalishdagi pog'onalanishdan (ierarxiyadan) iborat. Bu shundan iboratki, fonema, morfema va undan katta birliklar o'rtasida bir xil yo'nalishdagi pog'onali munosabat mavjud. Quyi sath birligi yuqori sath birligi uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Quyi sath birligi yuqori sath birligi tarkibida uning tarkibiy qismi (konstituenti) sifatida vazifa bajaradi. Shuning uchun til sathlari o'rtasida quyidan yuqoriga yo'nalgan munosabat e'tirof etiladi va bu munosabat bir xil

turdagi, konstituentiv munosabat sanaladi. Konstituentiv munosabat "...dan tashkil topadi", "...ga kiradi" sxemasini o'zida namoyon etadi.

Har bir sath birliklari umumiylik va xususiylilik dialektikasini o'zida namoyon etadi. Imkoniyat tarzidagi umumiy, invariant birliklar bevosita nutqiy jarayonda turli-tuman variantlar orqali namoyon bo'ladi. SHunday ekan, tilning barcha sath birliklari model sifatida o'zining nutqiy reprezentatsiyasiga ega bo'ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Адолатли жамият сари. – Тошкент, 1998.- 160 б.
2. Каримов.И.А. Миллий истиклол мафкураси халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.-Т.:Ўзбекистон, 2001.
3. Каримов.И.А. Ўзбекистон мустақилликка еришиш остонасида. Тошкент, "Ўзбекистон" нашриёти,2011.  
Каримов. И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ – Т.: Шарқ, 1998.
- 4.Каримов.И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Тошкент, "Ўзбекистон" нашриёти. 1997.
- 5.Каримов.И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент, "Маънавият" нашриёти. 2008.
- 6.Каримов.И.А. Асосий вазифамиз Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. “Халқ сўзи” газетаси. 2010 йил, 30 январ сони.
7. Каримов.И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамиятини барпо этиш устивор мақсадимиздир."Халқ сўзи" газетаси. 2011 йил, 28 январ сони.
- 8.Каримов I.A.Ona yurtimmiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.

9. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар,-Т.: Ўзбекистон. 1999.

## **II. Ilmiy adabiyotlar:**

10. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.

11. Киров Е.Ф. Теоретические проблемы моделирования языка. - Изд.Казанского университета, 1989.

12. Маҳматқулов С. Ўзбек тилида предикатив синтагманинг трансформацияланиши. Филол.фан.докт....дисс. -Тошкент, 2004.

13. Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспекти ва уларнинг муносабатлари. -Хўжанд.1992

14. Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари. Филол.фан.докт....диссерт. автореф. -Тошкент, 1994.

15. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. -Тошкент: Ўқитувчи, 1993.

16. Нурмонов А.Н. Гап ҳақида синтактик назариялар. –Тошкент: Фан, 1988.

17. Общее языкознание. Внутренняя структура языка. –М.: Наука.,1972.

18. Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. -Тошкент: Университет, 2002.

19. Ревзин И.И. Модели языка. -М., 1962

20. Системный анализ и научное знание. -М.: Наука, 1978.

21. Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. -Т.: Республика ўқув-услугий идораси, 1992.

22.Философский словарь. -С. 135

23. Шаҳобиддинова Ш.. Умумийлик-хусусийлик диалектикаси ва унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши. Филол.фан.докт....дисс. -Тошкент, 2002.

24. Ўзбек тили грамматикаси. 1 том. Т.: Фан, -Б. 1975

16.Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаиши. Тошкент:Ўқитувчи, 1989. –Б.9.

## **III. Internet adabiyotlari**

1. [www.allpravo.ru](http://www.allpravo.ru)
2. [www.book.ru](http://www.book.ru)
3. [www.esoform.ck.uz](http://www.esoform.ck.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
5. [www.iste'dod.uz](http://www.iste'dod.uz)
6. [www.lavbook.ru](http://www.lavbook.ru)
7. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
9. [www.uznature.uz](http://www.uznature.uz)
10. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



Fonologik sathdagi fonema variantlarining bunday tasnifi tilning boshqa sath birliklari uchun xosdir.